جديد


Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid

2024-yil
5-aprel
№ 15(15)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUDINING 688 YILLIGI



**Jahon tarixining mangu chinorlaridan biri Amir Temurni boshqa ulug‘ siymolardan ajratib turadigan, insoniyatni hayratga soladigan fazilatlari juda ko‘p. Ana shulardan biri, shubhasiz, uning bunyodkorlikka bo‘lgan mehri va shijoatidir, muxtasar aytganda, uning tom ma’nodagi bunyodkorligidir. Rus sharqshunos olimi V.V.Bartold uning g‘ayratiga qoyil qolib: “Revnostny stroitel” (jonkuyar va ashaddiy bunyodkor), deb ta’riflagan edi.**

TARIXIY KUN

# YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI TOSHKENTI



**Yaxshi niyat va orzularning ro‘yobi kishi qalbini cheksiz quvontiradi. O‘zbekiston ahli obodlik ko‘ngillardan boshlanib, moddiyatga ko‘chishdek yangilik va tarixiy hodisalarga yaqin o‘tgan bir necha yil davomida guvoh bo‘lib turibdi.**

**Yana bir muhim yangilik. Kechagi kun — 2024-yil 3-aprel Yangi O‘zbekiston tarixiga zarhal harflar bilan bitiladigan quvonchli kundir.**

Unutilmas bu kunda Respublika Prezidenti qadim Shoshga tutash hududda Yangi Toshkent shahri yuragi, ma’naviy gultoji bo‘lajak ilmu irfon maskanlari, madaniy inshootlar tamal toshini qo‘ydi.

Respublika Prezidenti uch yil avval so‘zlagan nutqida “Biz sekin-asta “Yangi Toshkent”ni quramiz”, degan fikrni aytgani ko‘pchilikning yodida bo‘lsa kerak. Zero, niyat va rejaning amalga oshishi, bu millionlab mamlakat ahli oldida aytilgan so‘zning ijrosi demakdir. Bunday bunyodkorlik uchun mo‘ysafid otaxonlar, tabarruk onaxonlar shunday Ro‘zai Ramazon kunlari, albatta, xayrli duolar qiladi.

*(Davomi 2-sahifada).*

# “HAR YERDAKIM, IMORATQA QOBIL YER KO‘RSA ERDI...”

Betimsol bobomiz Amir Temur har ishga kirishsa, qattiq kirishar edi. Sharafuddin Ali Yazdiy ham: “Hazrat Sohibqironning biyik himmati – har ishning oxirigacha yetkurmaguncha o‘lturmas erdi”, deya bejiz yozmagan edi.

Bir qiziq va ibratli voqea: hali oddiy amirlardan biri maqomida, qaysar, o‘zboshimcha va izzattalab amirlar boshini goh qovushtirishga erishib, goh qovushtira olmay Turkiston cho‘llarida ot choptirib yurgan pallalardayoq – 1365-66-yillar qishida Sohibqiron Qarshi qal’asi qo‘rg‘onini qurishga kirishdi va poyoniga yetkazdi. Temurbek bu paytda yigirma to‘qqiz yoshda edi. Uning bu harakatlari katta maqsad yo‘lida zinhor ikkilanib o‘tirmaganini, yosh amir o‘shandayoq ko‘ngliga ulug‘ umidlar joylaganini, uzoq maqsadlarni ko‘zlaganini, garchi o‘sha payt oddiy bir amir bo‘lgan esa-da, o‘zini butun mamlakat uchun mas’ul sezganini ko‘rsatadi. Chunki uning kelajakka ishonchi yuksak va sobit edi.

Ma’lumki, Samarqand ham mustahkam devorlar bilan o‘ralmagan edi. Shahar saltanat markazi qilib belgilangandan keyin, Amir Temur unga poytaxt ko‘rk-u salobatini berish, obod maskanga aylantirish yo‘lida katta harakat boshladi. Bu harakat Sohibqironning butun umri davomida bir lahza tingani yo‘q, desak mubolag‘a bo‘lmas. Dastavval ko‘chalar orasta qilindi, Ko‘ksaroy bunyod etildi. “Samarqand arkida Temurbek ulug‘ bir ko‘shk solibdur, to‘rt oshyonliq, – deb yozadi Bobur Mirzo “Boburnoma” asarida. – Ko‘ksaroyga mavsum va mashhur va oliy imoratdur”.

Amir Temur saltanat boshiga kelganiga bir yil bo‘lganda, milodiy 1371-yilda olti darvoza tiklandi, shaharsozlik rivojlanib ketdi, shahar mustahkam qal’a devorlari bilan o‘rab olindi. Sohibqiron Samarqandni dunyoning eng oldi shahariga aylantirmoqchi edi, bunga erishdi ham.

*(Davomi 4-sahifada).*

QADRIYAT

**Insonlar borki, nasabi shariflari zikr etilganda vaqt to‘xtaydi go‘yo. Ular asrlardan asrlarga o‘tib yashayveradilar. Xuddi Xizr alayhissalomning mangu tirikligi haqidagi afsonalar kabi... Xalq esa ular bosgan tuproqni-da e’zozlaydi, tabarruk qadamjolarga aylantiradi, ehtirom ila u joylarni ziyorat qiladi.**

# NASAFIYNING BOQIY NAFASI

Qarshidan o‘n yetti kilometr uzoqlikdagi Qovchin qishlog‘ida Abul Muin Nasafiy ziyoratgohi bor. 1027-1114-yillarda yashab o‘tgan Abul Muin Nasafiy ulug‘ islom olimi imom Moturidiyning izdoshi o‘laroq, uning aqidalariga ters oqimlarga qarshi o‘zining asosli ilmiy mulohazalari bilan kurasha olgan kalom ilmining yetuklaridan biridir. Ziyoratgoh ana shunday ilm-u irfon jonkuyari sharafiga nomlangan. Xalqimiz asrlar davomida e’zozlab kelgan ushbu muqaddas qadamjo ham sobiq tuzum davrida o‘g‘itxonaga aylantirilib, oyoqosti qilindi.

*(Davomi 2-sahifada).*

KREATIV IQTISODIYOT:

# ISTIQBOL VA MUAMMOLAR



**– Hurmatli Nurislom aka, xabaringiz bor, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari tomonidan xalqimizning birdamligi, erkinligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan qator ezgu tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, joriy yilda Toshkentda jahon kreativ iqtisodiyotiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkazish nazarda tutilgan. Kreativ iqtisodiyot nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, uning mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka hali u qadar tushunarli emas. Shunga ko‘ra, dastavval o‘quvchilarimizni kreativ iqtisodiyotning “tarjimai holi”dan boxabar qilsangiz.**

– “So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor”, deydi dono xalqimiz. Darhaqiqat, avvalboshda bu tushunchaning ma’no-mazmunini anglab olganimiz ma’qul. Kreativ (kreativlik) lotincha “creatio” so‘zidan olingan bo‘lib, ijod, ijod qilish ma’nosini anglatadi. Kengroq ma’noda u kishining standart g‘oyalar, an’anaviy qoida-yu qoliplardan chiqish qobiliyatini bildiradi. Sirasi, u ilg‘or fikr va yondashuvni, originallikni taqozo qiladi. Iqtisodiy ravnaq uchun kreativ fikrlashning o‘zigina kifoya emas. Undan yaratuvchi ham, iste’molchi ham birdek manfaatdor bo‘lishi, naf ko‘rishi kerak bo‘ladi. Buning uchun esa har qanday kreativ g‘oya moddiylashuvi, tovar va xizmatga aylanishi kerak. Keyingi bosqich tijoriylashuvdir. Kreativ tovar va xizmatlar bozor obyekti sifatida yetilishi, ta’bir joiz bo‘lsa, tarozidan o‘tishi, iste’molchi ehtiyojini qondirishi lozim. Shundan keyingina u iqtisodiy o‘sish omiliga aylanadi.

Shu ma’noda kreativ va innovatsion iqtisodiyot bir-biriga o‘xshab ketadi. Ammo ular o‘rtasida anchagina farqlar ham mavjud. Kreativ iqtisodiyot intellektual, madaniy tovar hamda xizmatlarni yaratish, rivojlantirish va tijoratlashtirishga qaratilgan. Binobarin, san’at, madaniyat, kino, dizayn, media, moda, ma’naviy meros, urf-odat, an’analar va boshqalar uning asosiy unsurlari hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyot esa ishlab chiqarish, texnika, texnologiyalar va biznesga yangiliklar kiritishning barcha jabhalarini qamrab oladi. Bu jarayonda mutlaqo yangi mahsulotlar ishlab chiqariladi, xizmatlar yaratiladi. Kreativ iqtisodiyotda ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohasiga ijodiy yondashuv orqali madaniy va intellektual aktivlardan foydalaniladi.



**Nurislom TO‘XLIYEV,**
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori, akademik*

*(Davomi 3-sahifada).*

TADQIQOT

# HUSAYN BOYQARO “ZAFARNOMA”SI

**Ilmda Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma”ning nodir qo‘lyozma nusxasi “Husayn Boyqaro “Zafarnoma”si, deb ataladi. Hozirda bu qo‘lyozma Amerika Qo‘shma Shtatlarida saqlanadi. 2022-yil mazkur qo‘lyozmani ko‘rish ishtiyoqida biz bu mamlakatning Baltimor shahriga yo‘l oldik. Natijada, ayni qo‘lyozmaning asl nusxasi bilan tanishishga muvaffaq bo‘ldik.**



Sharafuddin Ali Yazdiy (1454-yili vafot etgan) tomonidan 1419-1425-yillarda yozilgan “Zafarnoma” asari Amir Temur va temuriylar tarixi bo‘yicha yaratilgan eng mashhur asarlardan hisoblanadi. Uni Sharafuddin Ali Yazdiy temuriy shahzoda Ibrohim Sulton buyurtmasiga ko‘ra Sheroz shahrida yozgan. Amir Temurdan keyin va Hirotning 1507-yili Shayboniylar tomonidan bosib olinishi oralig‘ida Yazdiy “Zafarnoma”sining miniatyuralarga ega uch qo‘lyozma nusxasi ko‘chirilgani ma’lum. “Zafarnoma”ning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi, nodir nusxalari ko‘p emas. Shulardan biri “Husayn Boyqaro “Zafarnoma”si”dir. Mazkur nomlanish “Zafarnoma”ning noyob va yozilganidan ko‘p vaqt o‘tmay ko‘chirilgan nusxalaridan biri temuriy hukmdor Husayn Boyqaroga tegishli bo‘lganidan kelib chiqqan. Qo‘lyozma asar 1467-1468-yili ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning boshida Husayn Boyqaro madh etilgani uchun ayni qo‘lyozma “Husayn Boyqaro Zafarnoma”si” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

*(Davomi 4-sahifada).*

2024-yil 5-aprel
№ 15(15)

# YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI TOSHKENTI

Boshlanishi 1-sahifada.

Qadim va muhtasham Toshkent o‘ziga yondosh hududlar evaziga Sharqqa tomon kengayib borishida, shaharning quyoshga, osmono‘par tog‘lar tomon intilayotganida ham o‘ziga xos ramziy ma’no bor. Zero, yangilik, obodlik va bunyodkorlik – oydinlik, nurli yo‘l va yuksalish deganidir.

Darhaqiqat, mamlakat yuragi havoga to‘yinishi uchun Toshkent shahri batamom “yashil hudud”ga aylanmog‘i lozim. Kampus o‘zining betakror-zamonaviy kompozitsion tarhi, bog‘lari, og‘ochzorlari, gul-bo‘stonlari, suv havzalari bilan, deylik, azim Toshkentni bamisoli kaftida avaylaydi.

Yangi Toshkent hududida “Yangi O‘zbekiston” universiteti, Toshkent davlat pedagogika universitetining kampuslari, Milliy kutubxona, Milliy teatr, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Adabiyot muzeyi, ijod maktabi hamda Milliy maqom markazi qad rostlaydi. Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent shahridagi ilk inshootlar qurilishini boshlab berar ekan: “Bular ma’rifatli jamiyat barpo etish g‘oyamizning asosi va namunasi bo‘ladi”, degan juda muhim fikrni aytdi. Darhaqiqat, jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar o‘zlarida bunyod qilingan ma’rifat, ma’naviyat, madaniyat maskanlari shuhrati bilan dunyo ahlini o‘ziga qaratadi. Ko‘plarning havasini keltiradi. Kuch-qudrat, yangilangan tafakkur mahsuli bo‘lgan ezgulik binolarining qurilishi o‘zbek xalqi uchun bobomeros qadriyatlar sirasiga kiradi. Zero, bugungi tarixiy kundagi yangilanishlarni ko‘rgan har bir yurtdoshimiz xayoliga “Kuch – adolatda” iborasini hayotiy tamoyiliga aylantirgan buyuk Amir Temurning: “Agar bizning qudratimizga shubha qilsang, biz qurgan imoratlarga boq”, degan fikrlari kelsa ajab emas. Muhtasham binolarni ilm-fan, ma’naviyat, ma’rifat, adabiyot va san’atga daxldor betakror mazmun yashnatadi, albatta.

Mamlakatimiz Prezidenti yoshlar kelajagini, ma’naviy-axloqiy tarbiyasini o‘ylab, bu yangi maskanda birinchilar qatorida Toshkent davlat pedagogika universitetining yangi kampusi qurilishiga diqqat qaratdi. Bu kampus 20 ming talabaga mo‘ljallangan o‘quv binolari, 5 ming o‘rinli yotoqxona, 300 o‘rinli bog‘cha, 616 o‘rinli maktab, 588 o‘rinli akademik litsey, zamonaviy sport kompleksi, madaniyat saroyi, amfiteatr va boshqa inshootlarni qamrab oladi. Dunyoning ko‘p mamlakatlarida mavjud bo‘lgan “bog‘cha – maktab – universitet” uyg‘un tizimining bir joyda jamlanishi, tabiiyki, o‘zining jahoniy samarasini beradi. Zotan, yangi quriladigan shaharga ham, o‘quv dargohlari va uning sayilgohlari hamda bog‘lariga yangi davr yoshlarining poyqadami juda-juda yarashadi. “Yangi O‘zbekiston” universiteti Yangi Toshkent uchun yangicha tafakkur, ilg‘or ilm-fan markazi bo‘lishi aniq. Bu universitet kampusida 10 ming talabaga mo‘ljallangan o‘quv binolari, 1 ming 150 o‘rinli oshxona, kutubxona va ixcham muzey, sport majmuasi, olimpiya suzish havzasi barpo qilinadi. Bunday shart-sharoit, yoshlarning ilm olishi, tarbiya topishiga mos imkoniyatlarni ko‘rgan kattalar beixtiyor “Oh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi”, deb havas qilishlari tabiiy.

Kitobxonlikka juda katta diqqat qilinayotgan mamlakatimizda kutubxonalarning qurilishi – ma’naviy taraqqiyot uchun benihoya ulkan zarurat sanaladi. Yangi Toshkentda umumiy ko‘lami 30 ming metr kvadrat maydonni qamrab oladigan O‘zbekiston Milliy kutubxonasi O‘zbekiston ahlini chin ma’nodagi kitobxon millatga aylanishi, ko‘ngillar obodligiga beminnat xizmat qilishi tayin.

Darvoqe, Yangi Toshkent hududida hazrat Alisher Navoiy nomi bilan yuritiladigan Xalqaro ilmiy tadqiqot markazining barpo qilinishi nafaqat yurtimiz adabiyotshunoslari, balki dunyoning barcha hududlarida ishlab, istiqomat qilayotgan navoiyshunoslar uchun ham tuhfa bo‘ladi. Alisher Navoiy va boshqa allomalarning hayoti hamda ijodi tadqiqi, bo‘lganida ham, xalqaro darajada o‘rganilishi o‘tganlar ruhini shod etadi, ikkinchidan, bugungi tahlikali zamonda har bir insonni kamolot sari boshlaydi.

Xalqimizning suyukli shoirasi Zulfiyaxonimning bir she’rida “Bu bog‘lar – bir bog‘lar bo‘ladi hali...” degan misra bor. Shunga monand bu shahar bir go‘zal maskan, dunyoga dong taratadigan madaniyat, ma’rifat shahri o‘laroq dunyoga dong taratadi.

Milliy teatrning katta binosi qurilishi san’at ahlini naqadar mamnun qilsa, dramaturglarga ilhom bag‘ishlaydi, tomoshabinlarga esa zavq.

Shuningdek, Yangi Toshkentdagi ma’naviyat majmuasi tarkibida zamon talablariga mos alohida ijod maktabi, Adabiyot muzeyi va Milliy maqom markazining barpo etilishi ham ma’rifatga, adabiyot va san’atga, bir so‘z bilan aytganda, ko‘ngil obodligiga daxldor insonlarga shodlik ulashadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ayni tarixiy kunda: “Bugun poydevori qo‘yilayotgan maskanlar ko‘p yillar xalqimiz ma’naviyatini boyitish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Yangi Toshkent shahrining nafaqat yurtimiz, balki mintaqamizda ham chinakam ilm-ma’rifat va madaniyat markaziga aylanishiga katta hissa qo‘shadi, deb ishonaman”, degan gapi chuqur hayotiy asosga ega, albatta.


Azal-azaldan binolar, kutubxonalar, masjidlar, ko‘priklar qurganlar e’zozlangan. Qurilishiga sababchi bo‘lgan va qurganlar uchun beqiyos savob yog‘ilib turadi. Iste’dodli shoirimiz Maqsud Shayxzodaning:

“Shaharlar boqiydir, umr – o‘tkinchi,
Daryolar sobitdir, suvlar – ko‘chkinchi”,

degan mashhur misralari bor. Suvlar oqib ketadi, manziliga yetadi. Ammo shaharlar, xususan, yangi bunyod bo‘ladigan Yangi Toshkentdek zamonaviy shaharlar boqiy bo‘lib qolajak.

**TAHRIRIYAT**

PREZIDENT TASHRIFIDAN SO‘NG...



# GULBOZOR SAYYOHLARNI CHORLAMOQDA

**Toshkent! Ko‘z o‘ngimizda qanday manzara aks etadi? Osmono‘par binolar, serqatnov yo‘llar, gavjum savdo markazlari... Bu ko‘hna kent tarixda ham mana shunday “qaynoq” joy bo‘lgan. Moziyning o‘sha manzarasini ko‘rishni, o‘sha muhitga tushishni kim istamaydi?**

Bu shahardagi har bir mahallaning boy tarixi bor, ming yilliklar haqida hikoya qiluvchi obyektlari saqlanib qolgan. Ashyolar talay.

Gulbozor mahallasi eski shaharning tepalikda joylashgan eng qadimgi aholi yashash manzillaridan biri. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, bu mahalla o‘rnida IX-XII asrlarda Binkat, ya’ni qadimgi Toshkentning arki va shahristoni joylashgan. O‘sha davrlarda ham bu yerda aholi zich yashagan. Atrofi savdo-sotiq joylari, karvonsaroylar bilan o‘ralgan mahallaning orqa tarafida g‘alla bozori bo‘lgan. Yon-atrofi bozorlar bilan gavjum bo‘lgani uchun gullagan bozor deb atalgan.

Chorsu sayyohlarni ko‘p jalb qiladigan bozor. Unga tutash yerda joylashgan bu mahallada tarixiy qiyofasini saqlab qolgan ko‘cha va xonadonlar ko‘p. Mahallani obod qilish va zarur infratuzilmalar bilan ta’minlash maqsadida tegishli ishlar olib borildi. Bunda xonadonlar va ko‘chalarda poytaxtning qadimgi ko‘rinishini saqlab qolgan holda rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

Xususan, barcha kommunikatsiya tizimlari – yuqori va past kuchlanishli elektr o‘tkazgichlar, gaz quvurlari, issiq suv tarmoqlari yangilanish jarayonida yer ostiga olindi. Beton simyog‘ochlar olib tashlandi.

Mahalladagi “Haqiqat” ko‘chasidan yurib boramiz. Uning uzunligi yarim kilometrdan ortiqroq. Zarqaynar ko‘chasidan boshlangan bu yo‘l Alisher Navoiy shoh ko‘chasiga tutashadi, Chorsu bozori tomonga olib chiqadi.

Ko‘cha boshida mahallaning tarixini aks ettiruvchi tarixiy darvoza qaytadan tiklandi. U yerdagi uylarning tashqi devorlari eski shaharning o‘ziga xos qadriyatlari va tarixiyligini yo‘qotmaydigan darajada ta’mirlandi. Bu joyda sayyohlar o‘ziga xos qulaylik va muhitni his qilishlari shubhasiz. Mehmon uyi, hunarmandchilik rastasi, savdo do‘konlari ishlab turibdi. Yana qo‘shimcha tarzda ovqatlanish shoxobchalari, novvoyxona va muzey tashkil qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-aprel kuni shu mahallada bo‘ldi, uning ko‘chalarida piyoda yurdi. Mahalla ahli, nuroniylar bilan suhbatlashdi. Davlat rahbari zamonaviy majmualar hamma joyda borligini, xorijiy sayyohlarni mana shunday buyuk tariximiz bilan ko‘proq jalb etishimiz kerakligini alohida ta’kidladi.

Gulbozorda 2 ming 670 aholi yashaydi. O‘ttizga yaqin savdo, xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, novvoyxona, dorixona va xususiy maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida mahalla ishsizlikdan holi hududga aylangan. Shuningdek, mahallada “Xavfsiz hudud” tizimiga integratsiya qilingan kuzatuv kameralari o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvarda “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Hujjatda yurtimizga xorijiy sayyohlarni keng jalb qilish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish, turizm namoyishi obyektlaridan samarali foydalanish masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Bugun ushbu hujjat ijrosi doirasida qilinayotgan ishlarni Gulbozor misolida ham ko‘rish mumkin.

Turizm zarur infratuzilma yaratilsagina yaxshi rivojlanadi. Shu jihatni inobatga olgan holda mahallada zamonaviy uch yulduzli mehmonxona bunyod etilmoqda. Sohaga doir ta’lim xizmatlarini tashkil etish maqsadida esa xususiy oliy ta’lim dargohi tashkil etilmoqda. Bu ikki loyiha doirasida yana yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Shuningdek, hududda “Yashil makon” loyihasi doirasidagi ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Natijada mahalla hududida mevali va manzarali daraxtlar, gul-chechaklardan iborat bog‘ tashkil etildi. Bu maskanning sug‘orish tizimlari barpo etildi.

Mamlakatimizdagi har bir mahallaning o‘ziga xos imkoniyat va an’analari bor. Keyingi yillarda ularni aniqlab, qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qilinayotgani o‘z samarasini bermoqda.

**Ikrom AVVALBOYEV,**
**O‘zA muxbiri**

# NASAFIYNING BOQIY NAFASI

Boshlanishi 1-sahifada.

2017-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur ziyoratgohda juda katta qurilish va obodonchilik ishlari boshlab yuborildi. Shu tariqa majmua butunlay yangicha qiyofa kasb etib, dunyo jamoatchiligining e’tiborini ham qozondi.

XI-XII asrlarga oid ziyoratgoh to‘liq ta’mirlandi. Majmua maydonidagi 1234-yilda bunyod etilgan ko‘hna masjidga qo‘shimcha tarzda sharqona uslubda 250 kishilik yangi sajdagoh qad ko‘tardi. Shuningdek, alloma maqbarasi ta’mirlandi, ajdodlar qoldirgan ma’naviy merosni ixlos bilan o‘rganish istagida bo‘lganlar uchun aqida maktabi va kutubxona, osori-atiqalar vositasida yosh avlod tasavvurini boyitish maqsadida ma’rifiy muzey ham bunyod etildi.

Muzeyda ulug‘ olimning noyob asarlari, uning shogirdlari haqida ma’lumotlar hamda asriy qo‘lyozma-kitoblar, shuningdek, Nasaf tarixiga oid qo‘llanmalar saqlanadi. Ko‘rgazmadagi qadimiy manbalardan o‘z davrida madrasa talabalariga tahsil berishda foydalanilgan. Aytishlaricha, bu nodir qo‘lyozmalar bolsheviklardan asrash uchun sigir terisiga o‘ralib, majmua devori orasiga yashirilgan. Ular 1968-yilda yog‘ingarchilik oqibatida devor yemirilishi tufayli topib olinadi. Ular orasida XVII-XVIII asrlarga oid ikki dona Qur’oni karim kitobi, to‘rtta diniy adabiyot va “Fath” surasi chiroyli shaklda tikilgan mato parchasi ham bor. Samarqand ipak qog‘oziga nasta’liq yozuvida tushirilgan mahobatli Kalomullohning bir nusxasi ayni paytda mazkur ziyoratgohning muzeyida, ikkinchisi esa Shahrisabzda saqlanmoqda.



– Muzeyimizda elektronlashtirilgan kompakt monitorlar ham o‘rnatilgan, – deydi Abul Muin Nasafiy tarixiy majmuasini boshqarish va obodonlashtirish direksiyasi rahbari Muzaffar Bozorov. – Unda Nasafiy va uning maslakdoshlari hamda majmua ziyoratiga kelgan taniqli shaxslarning bildirgan fikrlari asosida tayyorlangan videoroliklarni tomosha qilish mumkin. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan kutubxona tashkil etilgani nur ustiga nur bo‘ldi. Biz kutubxona javonlarini diniy-ma’rifiy va zamonaviy adabiyotlar bilan boyitdik. Xorijiy ziyoratchilar kelishini hisobga olib, turk, arab va ingliz tillarida ham kitoblar olganmiz. Yana tahsil uchun darsxona, mo‘jazgina majlislar zali ham bor. Bugungi kunda ziyoratchilar soni yil sayin ortib boryapti.

Darhaqiqat, bu yerga ruhiy xotirjamlik istab keluvchilar ko‘p. Buyuk ajdodlarning boqiy merosi har bir vatandoshda faxr-u iftixor hissini yuksaltirib, shu muqaddas tuproqqa sadoqat tuyg‘usini shakllantirishi shubhasiz. Qashqadaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Faxriddin Husayinovning aytishicha, harbiy xizmatchilarning oilalari bilan Abul Muin Nasafiy ziyoratgohiga kelib-ketishlariga zarur sharoit yaratib berilgan. Ya’ni, ularning qat’iy tartibdagi ish faoliyatidan kelib chiqqan holda, ayollari va farzandlari uchun maxsus avtobuslar tashkil etilgan.



Ha, bu yerga ziyoratga kelgan odamning bahri-dili ochilishi tabiiy. Majmua hududiga olti yuzdan oshiq manzarali daraxt ko‘rk berib turibdi. Shakldor ko‘kalam maydonchalarda anvoyi gullar barq urib yotibdi. Ziyoratga kelganlar uchun gid xizmati ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, Faxriddin Qurbonov va Eldorbek Jumaniyozovning aytishicha, yoshi 300 dan 700 yilgacha taxmin qilinadigan qadimiy tut daraxtlaridan tortib, chuqurligi o‘n uch metrlik toshqudug‘-u, qizlar madrasasi hisoblangan “duxtarxona” ziyoratchilarning e’tiborini tortadi.

– Odamlar majmua haqida har xil rivoyatlar to‘qishgan, – deydi Eldorbek Jumaniyozov. – Ehtimol, bu to‘qimalar Abul Muin Nasafiyning nomi va u kishi mangu orom topgan joy tarixdan o‘chib ketmasligi uchun yaratilgandir. Axir, har ishda bir hikmat bor-da. Qadimiy tutlar haqidagi afsonada bir kishi tutni kesmoqchi bo‘lsa, tut olov olib, odam kuyib o‘lgani aytiladi. Tutlar esa zamonlar osha yashayotgani da’vo qilinib, xilma-xil naqllar to‘qilgan.

Majmuada qadimiylik va zamonaviylikning uyg‘un sasi bor. Ziyoratgohning orqa tarafida o‘ttiz gektarlik katta qabriston ham bo‘lib, undan topilgan o‘nta qabrtosh majmua tarkibida qoldirilgan. Ularning har biridagi qadimiy arabiy bitiklar hozirgi yozuvga o‘girilib, qabrtoshlar devoriga muhrlangan. Bundan tashqari, qabristonda temuriylar davriga oid yana 400 ga yaqin qabrtosh saqlangan. Ziyoratgohga kirish yo‘lagi bo‘ylab esa moturidiya ta’limotining eng ulug‘ targ‘ibotchisi hisoblangan Abul Muin Nasafiy kitoblarining muhtasham ramziy ishlanmalari o‘rnatilgan.

Xalqimiz barokatli bir ishni boshlashdan oldin marhum ajdodlari ruhiga bag‘ishlab tilovat qiladi, tiriklaridan duo olishga oshiqadi. Chunki rizolik bor joyda xayr bor. Davlatimiz rahbarining azizlar mangu qo‘nim topgan ziyoratgohlarga e’tibori ham ana shunday xayrlarga vositadir aslida. Zero, bu ezgu amallarda tarbiya, ta’lim va ibrat mujassam.

**Muhayyo PIRNAFASOVA**

KREATIV IQTISODIYOT:

# ISTIQBOL VA MUAMMOLAR



Boshlanishi 1-sahifada.

Biroq o‘zaro jiddiy farqlari bo‘lishiga qaramay, kreativ va innovatsion iqtisodiyot bir-birini to‘ldirib, iqtisodiy o‘sish sharti va omili vazifasini bajaradi.

Kreativ iqtisodiyotni boshqa iqtisodiyot shakllaridan ajratib turadigan bir necha o‘zak xususiyati mavjud. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– kreativ iqtisodiyot innovatsiyalar va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishga tayanadi, bu jarayonda mahsulot, xizmat va iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirishga hissa qo‘shadigan g‘oyalar, dizayn, madaniyat va boshqa kreativ jihatlar qiymati alohida ahamiyat kasb etadi;

– kreativ iqtisodiyot san’at, dizayn, musiqa, kino, adabiyot kabi ijodiy sohalar bilan vobasta ish ko‘radi, ya’ni san’at va madaniyat yo‘nalishlari iqtisodiy rivojlanish va ish o‘rni yaratishga ko‘makka keladi;

– kreativ iqtisodiyot o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga ko‘nikishga, moslashuvchanlikka asoslanadi, u biznesdagi xilma-xillik va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi va shu tariqa yangi sanoat va bozorlar shakllanadi, rivojlanadi;

– kreativ iqtisodiyot jamiyatning turli bo‘g‘inlari – biznes, hukumat, ta’lim va madaniyat o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradi, bu esa mushtarak maqsadlarga erishishda bilim, tajriba va resurslar almashinuviga xizmat qiladi;

– kreativ iqtisodiyot ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy jihatlarni hisobga olgan holda barqaror taraqqiyotga intilish demakdir. Ayni chog‘da, iqtisodiy o‘sish va resurslardan oqilona foydalanish o‘rtasida muvozanat, “oltin o‘rtaliq”ni saqlashga e’tibor qaratiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, kreativ iqtisodiyot barqaror o‘sish va raqobatbardoshlikni rag‘batlantirgan, ijodkorlik va innovatsiyalarga tayangan holda jamiyatni yangi taraqqiyot manzillariga eltishga xizmat qiladi.

**– Bugungi kunda mahsulotni baholashda xomashyo, texnologiya, mehnat resurslaridan ko‘ra, aql kuchi va g‘oyaning qiymati ko‘proq tosh bosmoqda. Deylik, “Apple” kompaniyasi yaratgan smartfonlar, yana boshqa dongdor shirkatlar ishlab chiqqan dasturlar hamda o‘yinlarning yetti iqlimda bozori chaqqon. Ma’lumotlarga qaraganda, Yaponiyadagi “Pokemon” kompaniyasining shu nomli o‘yinlar turkumidan oladigan daromadi bizning paxtachilikdan topadigan yillik foydamizdan ko‘proq ekan. Sizningcha, O‘zbekistonda kreativ iqtisodiyotning muhim nuqtalari sifatida qaysi yo‘nalishlarga e’tibor berish kerak?**

– Zamonaviy iqtisodiyotda aql-zakovat va g‘oyaning ahamiyati tobora ortib borayotganini inobatga olib, O‘zbekistonda bunyodkorlik tarmoqlariga e’tibor qaratish lozim. Kamina mamlakatimizda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish borasida quyidagi aniq vazifalarni qayd etgan bo‘lur edim:

– ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, moliya kabi sohalar uchun innovatsion mobil ilovalar yaratish;

– axborot, xizmatlar va ko‘ngilochar dasturlardan qulay foydalanish uchun ilg‘or onlayn platformalarni yo‘lga qo‘yish;

– foydalanuvchilarning bilim olishi, madaniy hordiq chiqarishi uchun turli intellektual o‘yinlarni yaratish, audiovizual kontentni boyitish, obrazli aytganda, virtual haqiqatni shakllantirish;

– noyob mahsulotlarni ijod qiladigan dizayner, dasturchi va rassomlarni, qolaversa, san’at va adabiyot vakillarini har taraflama qo‘llab-quvvatlash;

– ta’lim samaradorligi va qulayligini oshirish uchun onlayn ta’lim dasturlari, elektron darsliklar, bilim olish platformalari va xizmatlarini ishlab chiqish.

Ochig‘i, hech bir investitsiya ilmiy-ijodiy salohiyatni oshirishga sarflangan sarmoyachalik jamiyatga foyda keltirmaydi. Biz yuqorida sanab o‘tgan yo‘nalishlarga ajratilgan investitsiyalar ham diversifikatsiyalangan iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rni yaratish hamda O‘zbekistonning innovatsion va bunyodkor mamlakat sifatidagi obro‘sini oshirishga xizmat qiladi.

Kreativ o‘sish nuqtalaridan biri, so‘zsiz ta’limdir. Bugun mamlakatimizda ta’lim ravnaqi uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratilmoqda. BMTning Inson rivojlanish indeksida muhim uch ko‘rsatkichdan biri hisoblanadigan ta’lim darajasi bo‘yicha biz dunyoda eng oldingi o‘rinlarda turamiz. Bu quvonarli, albatta. Ammo erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lmay, tizimdagi kamchilik va muammolarni bartaraf etish tadorigini ko‘rmog‘imiz lozim. Biz oliy ta’limda nazariy bilim berish bilangina kifoyalanib qolamiz. Talabalarni zaruriy malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ishlab chiqarishga tayyorlash borasida esa oqsamoqdamiz. Buning oqibatida qo‘lida diplom bilan katta hayotga qadam qo‘ygan yosh mutaxassislar ishlab chiqarishga birdaniga kirishib ketolmaydi, hayotda o‘z o‘rnini topolmaydi. Pirovardida esa qo‘nimsizlik, mehnat migratsiyasi kuchayadi.

Bugun ta’lim islohoti hayot-mamot masalasiga aylangan. “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasida bu muhim ijtimoiy sohani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilgani, 2024-yilga “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb nom berilgani ham tasodif emas. Rasmiy statistika bo‘yicha 14-30 yoshdagilar yoshlar toifasiga kiritiladi. Ular nufuz jihatdan katta kuch ekani sir emas, endilikda yoshlar nufuzi jihatdan ham jamiyatning harakatlantiruvchi qatlamiga aylanishi zarur. Demak, yoshlarning mustaqil hayotga kirishi, yaxshi bilim olishi, munosib kasb-hunar egallashida butun jamiyat yelkadosh, ko‘makdosh bo‘lmog‘i lozim. Chunki farzandlarimiz hayot yo‘li, kasb-hunar tanlovida xatoga yo‘l qo‘ysa, uni butun umri davomida tuzatishi qiyin bo‘ladi.

Keyingi yillarda “inson kapitali” tushunchasiga katta e’tibor berilayotgani ham bejiz emas. Inson kapitali bu – insonning iqtisodiy va ijtimoiy o‘sishida unga qanot bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, tajriba va qobiliyatlar yig‘indisidir.

Jahonning peshqadam mamlakatlarida bilim iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lidagi sa’y-harakatlar tufayli inson kapitaliga e’tibor yanada ortmoqda. Bugun dunyo davlatlari investitsiyalar, texnologiyalar va bozorlar uchun ayovsiz raqobat va kimo‘zar poygaga kirishgan. Raqobatbardoshlik va innovatsion rivojlanishni ta’minlaydigan asosiy resurs esa inson kapitalidir.

Yana bir kreativ o‘sish nuqtasi – axborot texnologiyalarini rivojlantirishdir. Soha ravnaqiga yanada ko‘proq ahamiyat qaratish, e’tirof va e’tibor qozongan “Bir million dasturchi” loyihasini bundanda kengaytirish lozim.

Biz kreativ iqtisodiyotni rivojlantirar ekanmiz, an’anaviy iqtisodiyot va uning tarmoqlarini innovatsion takomillashtirish, uning kreativligini oshirishni diqqat-e’tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak, albatta. Kreativ iqtisodiyot an’anaviy iqtisodiyotga muqobil tarzda ijod ahlini, iste’dodlarni kashf etish, yuzaga chiqarish uchun muhim. Bu yo‘nalish jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizini beradi, xolos. YIMning qolgan ulushi industrial va agrar soha, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga tegishli.

**– Kreativ iqtisodiyotning aniq chegaralari belgilanmagan. Ammo deyarli barcha tasniflarda hunarmandlik, moda, dizayn, kino, shou-biznes sohalari uning asosiy tarmoqlari sifatida ko‘rsatilgan. Nima deb o‘ylaysiz, madaniyat va san’atning qaysi yo‘nalishi O‘zbekistonda kreativ sohasining drayveriga aylanishi mumkin?**

– Kreativ iqtisodiyotni kreatorlar talantli shaxslar yaratadi. Mintaqamizda suv, tabiiy boyliklar zaxirasi cheklangan, xomashyo resurslari qachondir tamom bo‘ladi. Biroq talantlar bisyor. Xalqimiz azaldan iste’dodli, omilkor va ishbilarmon el sifatida mashhur bo‘lgan. Kreativ iqtisodiyot unsurlaridan biri hisoblangan shou-biznesni olsak, uni odatda davlat moliyalashtirmaydi, homiylar va san’atkorlarning o‘z jamg‘armasi hisobidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ya’ni, talantlar ko‘pincha o‘z kuchi bilan maydonga chiqadi. Masalan, estrada xonandasi Ozoda Nursaidova o‘zining bugun dunyo miqyosida trendga chiqqan “Ko‘k “Jiguli” yoki xonanda Dilnoz yoshlar orasida ommalashgan “Saharlarda” qo‘shig‘ini yaratish uchun lozim bo‘lgan mablag‘ni o‘zlarining yonidan sarflagan. Shou-biznes misolida ko‘rmoqdamizki, o‘sish uchun uch narsa talab etiladi: halol “o‘yin qoidalari”, iste’dodlarga xalal bermaslik va imkon qadar ularni qo‘llab-quvvatlash. O‘z davrida Sharof Rashidov g‘amxo‘rlik qilmaganida “Yalla” va “Bahor” ansambllarining dunyoga tanilishi amrimahol edi. Qozog‘istonlik ekspertlar Dimash Xudaybergan, Oysulton Seyitov va Imanbek Zeykenov kabi san’atkorlarini dunyo miqyosidagi talantlar deb baholamoqda. Qardoshlarning yutug‘iga g‘ayirlik qilmoq niyatimiz yo‘q, ammo bizda shunday talantlar kammi? Noyob ovoz sohibalari hisoblangan Munojat Yo‘lchiyeva, Sevara Nazarxon, iste’dodli kompozitor Sultonali Rahmatov, shedevr asarlar yarata oladigan rejissyorlarimiz, ijodkorlarimiz juda ko‘p. Lekin biz ularni munosib qo‘llab-quvvatlayapmizmi? Gap shunda.

Birgina iste’dod sohibi ham o‘z millatini olamga tanitishi va shu orqali mamlakatga katta daromad keltirishi, o‘sha yurtda kreativ iqtisodiyot nash’u namo topishi mumkin. Uzoq bormaylik, Chingiz Aytmatov tufayli qirg‘izlarni, Muslim Magomayev tufayli ozarbayjonlarni dunyo tanidi...

**– O‘zbekiston haqli ravishda allomalar yurti deb e’tirof etiladi. Diyorimizning barcha go‘shalarida ulug‘ avliyolar, mutafakkir olimlar va qilqalam shoirlarning qadamjolari mavjud. Samarqand va Buxoro shaharlari Sharqning ikki gavhari sifatida olamga mashhur. Shunday ekan, yurtimizda ziyorat turizmining imkoniyatlarini kengaytirish ham kreativ iqtisodiyotning asosiy vazifalaridan emasmi?**

– To‘g‘ri ta’kidladingiz, mamlakatimizda ziyorat turizmi imkoniyatlarini kengaytirish kreativ iqtisodiyotining asosiy vazifalaridan biriga aylanishi lozim. Boy madaniy meros, qadim tarix diyorimizni ziyorat turizmi uchun jozibador maskanga aylantirishi shubhasiz. O‘nlab shaharlarimizda me’moriy obidalar, buyuk alloma va avliyolar maqbaralari, ko‘hna masjid-u madrasalar, muqaddas qadamjolar xalqimizning bebaho xazinasi hisoblanadi. Ana shu ma’naviy boyligimizdan o‘rinli va samarali foydalanish haqida jiddiyroq bosh qotirishimiz kerak.

Ziyorat turizmini rivojlantirish – madaniy merosni asrab-avaylash, yangi ish o‘rinlari yaratish, infratuzilma va xizmatlarni takomillashtirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash deganidir.

Mamlakatimizga ziyorat maqsadida kelayotgan sayyohlar ma’naviy merosimizga oid esdalik sovg‘alari, kitoblar va boshqa tovarlarni xarid qilishga qiziqishi tabiiy. Afsuski, biz ziyoratga kelayotgan turistlarga mahobatli binolar va qadimiy maqbaralardan boshqa arzigudek narsa taqdim etolmayapmiz. Holbuki, turist har qadamda qiziq va yangi, boshqa joyda uchramaydigan holatlarning guvohi bo‘lishni istaydi. To‘ylarimiz, teatrlashtirilgan tomoshalarimiz, baxshilarimiz, milliy kiyimlarimiz, o‘yinlarimiz, udumlarimiz – hammahammasini ularga namoyish etish yo‘llarini topish kerak. Yurtimizda tashkil etilayotgan qator xalqaro anjumanlar, xususan, maqom, baxshichilik, raqs, hunarmandchilik, ipak va ziravorlar, gullar festivallari ayni shu maqsadga qaratilgani bilan e’tiborlidir.

Binobarin, ziyorat turizmini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, investisiyalarni jalb etish va O‘zbekistonda madaniy turizmga qiziqishni oshirishda muhim omil sanaladi.

Sayyohlikning bu yo‘nalishini rivojlantirish uchun ulkan resurslarimiz bor. Mamlakatimizda 745 ta ziyorat obyekti ro‘yxatga olingan, ammo ularning 10-15 foizi tashqi va ichki turistlar uchun marshrutga kiritilgan. To‘g‘ri, aksariyat ziyorat obyektlari mahalliy ahamiyatga ega, tarixi to‘liq tadqiq etilmagan, zarur infratuzilmaga ega emas madaniy meros obyektlari ham bir necha yuzlab. Hozirgi asosiy vazifa ularni kapitalga aylantirishdir.

O‘zbekistonda buyuk muhaddis Imom Buxoriy qadamjosi ziyorat turizmining markazida turishi shubhasiz. Ayni paytda hurmatli Prezidentimiz tashabbusi bilan bu ulug‘ vatandoshimizning siymosi va o‘lmas ma’naviy merosini o‘rganishga juda katta e’tibor qaratilib, uning ziyoratgohida muhtasham majmua barpo etilayotgani ayni muddaodir. Ushbu majmua Makka, Madina, Quddusi sharifdagi muqaddas qadamjolar kabi dunyoda keng targ‘ib etilishi kerak. Birinchi navbatda Imom Buxoriy hazratlarining hayoti va merosi haqida har jihatdan mukammal bo‘lgan kinoserial yaratish maqsadga muvofiq. Serial ssenariysining nomidan to xotimasiga qadar mukammal bo‘lishi, filmda o‘sha davr tarixi, madaniyati, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, allomaning beqiyos ma’naviy jasorati, xususan, Islomdagi firqalanish, sof e’tiqodni buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish yo‘lidagi xizmatlari bo‘yab-bejamasdan xolis va obyektiv yoritilishi lozim. Men bu masalaga alohida urg‘u berayotganim bejiz emas. Tarixiy qahramonlarimizni tirik inson sifatida tasvirlashda ortiqcha hayajon-u pafoslardan tiyilish talab etiladi. Taassufki, tarixiy mavzudagi ayrim kino va adabiyot asarlarimiz xalqni ajdodlarimizdan uzoqlashtirishdan boshqasiga yaramaydi. Tarixiy shaxslarni ilohiylashtirishdan insoniylashtirishga o‘tish vaqti keldi. Bu ham kreativlikning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

**– Keyingi vaqtlarda yurtimizda milliy hunarmandlik, xalq o‘yinlari va folklor sohasini rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin ba’zan bu ishlar festivaldan festivalgacha unutilib, e’tibordan chetda qolib ketishi ham sir emas. Ushbu sohalarni rivojlantirish, hunarmand va ijodkorlarning mehnatini real iqtisodiy daromadga aylantirish uchun ko‘makchi sohalar – reklama, turizm, dizayn, kompyuter grafikasi imkoniyatlarini ishga solish vaqti kelmadimi?**

– Savolingiz o‘rinli. Bizda kreator, innovator kadrlarni tayyorlaydigan, dunyo maydoniga olib chiqadigan ilmiy-ijodiy maktab shakllanmagan. Milliy hunarmandlik, xalq o‘yinlari, folklor va festivallarni esga oldingiz. Bu siradagi tadbirlarimiz ba’zida nomiga o‘tkazilayotgandek. Namangandagi gullar bayrami, Marg‘ilondagi xalq hunarmandligi, Buxorodagi zardo‘zlik yarmarka-festivallarining juda katta imkoniyatlari bor. Lekin ular shu paytgacha xalqaro brend darajasiga ko‘tarilgani yo‘q. Surxondaryodagi xalqaro kurash musobaqasi, “Boysun bahori” festivali haqida ham shuni aytish mumkin. Xorazmda “Qovun sayli” yaxshigina boshlangan edi, bugun uning ham dovrug‘i so‘ngandek.

Yurtimizda xalq hunarmandligining bir necha ming yillik shonli tarixi bor, bugungi imkoniyatlari ham ulkan. Yaqinda davlatimiz rahbari Namangan viloyatiga tashrifi chog‘ida mamlakatimizda yiliga 100 tonna oltin qazib olinayotgani, ammo uning atigi 6 foizi qayta ishlanayotganiga e’tibor qaratdi. Darhaqiqat, mamlakatimiz oltin qazib olish bo‘yicha dunyo o‘ntaligiga kiradi. Masalan, Hindistondek ulkan mamlakatda oltin qazib olish tonnada emas, kilogrammda hisoblanadi. Aniqrog‘i, ushbu mamlakat yiliga atigi 2-3 ming kilogramm oltin qazib oladi, ammo har yili chetdan 1000 tonnagacha oltin import qiladi. Oltin qazib olish ko‘rsatkichi kam ekaniga qaramay, Hindiston YIMning 7 foizi zargarlik buyumlarini sotishdan shakllanadi. Mamlakat yaqin yillarda zargarlik mahsulotlari eksportini 40 milliarddan 100 milliard dollarga yetkazishni ko‘zlamoqda. Hind hunarmandlari an’anaviy zargarlikdan brend zargarlikka o‘tmoqda. Demak, bu borada ham ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganishimiz lozim.

Haqiqatan ham, hunarmandlikni iqtisodiy daromad manbaiga aylantirish bu sohani asrab-avaylash va targ‘ib qilish kabi muhim vazifa hisoblanadi. Bunga erishish yo‘llaridan biri – reklama, turizm, dizayn, kompyuter grafikasi kabi turdosh tarmoqlarni rivojlantirishdir.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mahalliy aholi va chet ellik sayyohlar e’tiborini tortadigan noyob mahsulot va xizmatlarni yaratish orqali milliy hunarmandlik va folklorni iqtisodiyotga uyg‘unlashtirish mumkin. Sayyohlar hamisha noyob tajriba va asl mahsulotlarni ayricha qadrlaydi, bu esa mahalliy hunarmandlar va ijodkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Shuningdek, yosh avlodni zamonaviy texnologiyalardan, dizayn va marketingdan foydalanishga o‘rgatish, ularning ijodiy ishlarini ommalashtirish katta ahamiyatga ega. Bu nafaqat an’analarni saqlab qolish, balki ijodni muvaffaqiyatli biznesga aylantirishga yordam beradi. Demak, zamonaviy ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalana oladigan ijodkorlarni tarbiyalash milliy hunarmandlik va xalq og‘zaki ijodining iqtisodiy resurs sifatida muvaffaqiyatli rivojlanishining garovi bo‘la oladi.

**– Muhammad Abdu, Ismoil G‘asprali, Ahmad Donish, Muhammad Iqbol, Abdulla Qodiriy... XIX asr oxiri – XX asrning boshida Sharq ma’rifatparvarlarining barchasi G‘arbning qudrati – ochiq-sochiq qizlarning raqs va qo‘shiqlari yoki ichkilik va sigaretasida emas, balki uning ilm-u irfonida, bilim va ma’rifatida, deb bong urganlar. Ammo ne tongki, o‘shanda odamlar sharobxo‘rlik va fahshni zamonaviylikning birlamchi belgisi deb qabul qildi va... adashdi!**

**“Tarix takrordan iborat” deganlari rost shekilli, bugun ham shunga o‘xshash vaziyatga duch keldik. Biz mutaraqqiy olamning ma’naviy illatlaridan ulgi olishga ko‘proq rag‘bat ko‘rsatayotirmiz. Holbuki, e’tiqod erkinligi bilan e’tiqodsizlik erkinligi o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor.**

**Mavzuga qaytaylik. Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha qaysi mamlakatlar tajribasini o‘rganishni maqbul deb hisoblaysiz?**

– Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha eng muvaffaqiyatli tajribani Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Qatar, Yaponiya, AQSh kabi mamlakatlarda ko‘rish mumkin. Bu davlatlar madaniyat sohalariga faol sarmoya kiritmoqda, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlamoqda, innovatsion loyihalar ishlab chiqib, bunyodkorlik iqtisodiyoti yuksalishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. O‘zbekiston ham ularning tajribasidan foydalanishi mumkin.

Londonda Shoreditch (https://www.londonitis.com/shoreditch-where-creativity-meets-urban-vibes/) va Covent Garden (https://www.covent-garden.london/) kabi bir nechta muvaffaqiyatli kreativ klasterlar mavjud. Ular ijodiy mutaxassislar, startap egalari, dizaynerlar, rassomlar va boshqa ijodiy soha vakillari boshini qovushtiradi. Ijodiy loyihalarni ishlab chiqish uchun ko‘plab studiyalar, galereyalar, dizayn byurolari, kovorking maydonlari va boshqa platformalar ham bor.

Londondagi kreativ klasterlar madaniyat industriyasining turli tarmoqlari vakillari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik uchun qulay muhit yaratadi, yangi g‘oya, loyiha va mahsulotlarning paydo bo‘lishiga doyalik qiladi.

Tondemun dizayn plaza – Seuldagi zamonaviy me’moriy majmua bo‘lib, Janubiy Koreyaning bunyodkorlik iqtisodiyoti ramziga aylangan. U dizayn, moda va san’at ko‘rgazmalari, festivallar, anjumanlarga mezbonlik qiladi. Dizaynerlar, rassomlar, me’morlar va boshqa ijodkorlarning oshyoni bo‘lgan bu maskanda noyob ilhom va innovatsiya muhiti yaratilgan.

Xitoyda kreativ iqtisodiyotning yorqin misollaridan biri bu – video o‘yinlar sanoatining rivojlanishidir. Xitoylik o‘yin ishlab chiqaruvchilar innovatsion g‘oyalarni faol joriy qilmoqda, noyob mahsulotlarni yaratib, jahon bozorini egallamoqda. Xitoy o‘yin sanoati texnologik taraqqiyot va ijodiy yondashuvlar tufayli dunyoda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi.

Xitoyning “Honor of Kings”, “PUBG Mobile” kabi mashhur o‘yinlarni ishlab chiqqan “Tencent” kompaniyasi faoliyati ham diqqatga sazovor.

Yaponiya ham uzoq vaqtdan beri bu sohada yetakchilardan biri hisoblanadi. “Mario”, “Zelda”, “Final Fantasy” kabi yapon o‘yinlari mazkur sanoatning klassikasi hisoblanadi. Yaponiyalik ishlab chiquvchilar sifatli kontenti va o‘ziga xos uslubi bilan nom chiqargan.

So‘nggi yillarda Xitoy o‘yin sanoati innovatsion g‘oyalar, yuqori texnologiyali mahsulotlar va jozibali o‘yin mexanikasini taklif qilib, yapon ishlab chiqaruvchilari uchun jiddiy raqobatchiga aylandi.

**– Yoshlarimizning ijodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda shu orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun nimalarga ko‘proq e’tibor berish lozim?**

– Bu borada quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

Birinchi yo‘nalish – madaniy-badiiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan zamonaviy ta’lim dasturlari orqali yoshlarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish zarur. Ilg‘or mamlakatlar san’at, dizayn, musiqa va boshqa ijodiy sohalar ta’limiga izchil sarmoya kiritadi. Bu esa kreativ industriya ravnaqiga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo‘nalish – sohaga yangi qadam qo‘ygan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash lozim. Iqtidorli yoshlar ko‘pincha muvaffaqiyatli biznes uchun asos bo‘lishga arzigulik g‘oya va loyihalarga ega bo‘ladi. Ularni grant, investitsiya, tanlov va boshqa mexanizmlar orqali faol qo‘llab-quvvatlash kerak.

Uchinchi yo‘nalish – madaniy klasterlar va platformalarni yaratish talab etiladi. Ijodiy faoliyat uchun infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, san’at markazlari, kovorking maydonlari, studiyalar va galereyalar barpo qilish lozim.

To‘rtinchi yo‘nalish – xalqaro hamkorlik va tajriba almashishga alohida e’tibor qaratish darkor. Bu yosh iste’dodlarning dunyoqarashini kengaytirish, loyihalar uchun yangi imkoniyatlarni topishga yordam beradi.

Beshinchi masala – bebaho madaniy merosimizni yurtimizda va dunyoda keng targ‘ib qilish va ommalashtirishga ustuvor ahamiyat qaratish lozim. Zotan, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o‘z madaniy merosidan turizm, madaniy tadbirlar, dizayn va boshqa sohalarni rivojlantirishda o‘ziga xos resurs sifatida unumli foydalanmoqda.

Jahon tajribasini o‘rganish, uni xalqimizning ruhi, mentaliteti va urf-odatlari bilan uyg‘unlashtirib ijodiy mahsulotlar yaratishimiz yaxshi, albatta, ammo bu jabhada ham shunchaki imitator emas, balki chinakam innovator bo‘lishimiz kerak. Ana shunda ko‘zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

**– Albatta, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish keng ko‘lamli masala bo‘lib, birgina suhbat davomida uning barcha jihatlarini qamrab olishning imkoni yo‘q. Shu bois yaqin orada ushbu muhim mavzudagi muloqotlarimizni davom ettirib, bu yo‘nalishga aloqador tadbirkorlar, taniqli san’atkorlar, ijodkorlar va boshqa sohalar vakillarining ham fikr-mulohazalari bilan tanishsak o‘rinli bo‘ladi, deb o‘ylayman.**


– Juda to‘g‘ri fikr. O‘zbekistonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish, ta’bir joiz bo‘lsa, biz uchun hayot-mamot masalasi hisoblanadi. Shuning uchun bu haqda imkon qadar ko‘proq so‘z yuritish, turli soha vakillarining fikr va takliflarini o‘rganish lozim. Eng asosiysi, bu borada tezroq keng ko‘lamli amaliy harakatlarga qo‘l urish kerak.

**– Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat.**

**Olimjon DAVLATOV**
**suhbatlashdi.**

2024-yil 5-aprel
№ 15(15)

# “HAR YERDAKIM, IMORATQA QOBIL YER KO‘RSA ERDI...”



Boshlanishi 1-sahifada.

Hatto buni ta’kidlash uchun, shahar atrofida Damashq, Bag‘dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi mashhur shaharlar nomlari bilan atalgan, bog‘-rog‘larga ko‘milgan katta-katta qishloqlar barpo qildirdi. Buning tagzaminida dunyoning mashhur shaharlari Samarqand oldida oddiy bir qishloqsifatdir, degan ma’no bor.

Samarqandi firdavsmonand atrofida bunyod etilgan bog‘lar-chi, bag‘oyat shinam va go‘zal. Ularning ta’rifi muarrixlar asarlarida keltirilgan. Bog‘i naqshi jahon (Jahongir Mirzo bog‘i), Bog‘i Chinor (Saroymulkxonim bog‘i), Bog‘i Bihisht (Tuman oqa bog‘i), Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Baland, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i Nav va boshqa bog‘lar poytaxt ko‘rkiga ko‘rk bo‘lib qo‘shildi. Ularning har birida muhtasham saroy, ko‘shk va naqshinkor ayvonlar qurildi, salqin xiyobonlar barpo etildi.

Bu bog‘larda bo‘lgan, go‘zal maskanlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo bari haqida o‘z kundaliklarida zavq-shavq bilan qalam tebratgan. Chunonchi, ispan elchisi Sohibqironning suyukli xotini Tuman oqaga atab bunyod etilgan Bog‘i Bihisht haqida shunday yozgandi: *“Bu bog‘ning g‘ishtin va naqshin, lojuvard va oltin bilan bezatilgan baland va go‘zal darvozasi bor. Bog‘ nihoyatda katta. Unda mevali va sersoya daraxtlar ko‘p. Yog‘och panjaralar bilan ihotalangan shinam xiyobon va yo‘laklardan odamlar o‘tib turadi...”*

Bog‘i Nav haqida esa quyidagilarni o‘qiymiz: *“Bog‘ning to‘rt tarafi baland devorlar bilan o‘ralgan, har bir burchagida g‘o‘lasifat burj-minora bo‘y cho‘zgan. Bog‘ o‘rtasida – oldida sarhovuzi bor katta chortoq uy ko‘zga tashlanadi...”*

Umuman, bog‘ yaratish, bunyod qilishni Amir Temur juda yaxshi ko‘rardi, ta’bir joiz bo‘lsa, bog‘lar yaratish uning sevgan mashg‘ulotiga aylangandi, yashnagan bog‘ni ko‘rib bahri dili ochilardi. Umrining oxirigacha shunday qutlug‘ ish bilan mashg‘ul bo‘lgani buning dalili. Shuni aytish joizki, barcha bog‘lar, madrasa va masjidlar qurilish loyihasi Sohibqiron rahnamoligida qo‘ligul ustalar, me’morlar tarafidan chizilar edi.


1397-yil martda Amir Temur Samarqandning shimolida Bog‘i Dilkushoni barpo etish uchun “Konigilning bir yonida bog‘i tarh solsunlar!..” deb buyruq beradi. Kichik malika, sohibjamol To‘kalxonimga atab oliy bir ko‘shk, ulug‘vor ayvon bunyod etadilar.

*“Ko‘shkning toq-u ravoqlari naqshinkor va sirkor g‘ishtlar bilan pardoz topdi,* – deb yozadi Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida. – Bog‘ning to‘rt burchagida... serhasham shiyponlar qurildi”.

*“(Temurbek) Samarqand sharqida ikki bog‘ solibdur, ...yovuqrog‘i Bog‘i Dilkushodir,* – deyiladi “Boburnoma”da. – *Andin Feruza darvozasig‘acha xiyobon qilib, ikki tarafda terak yig‘ochlari ekturubtur. Dilkushoda ham ulug‘ ko‘shk soldurubtur, ul ko‘shkta Temurbekning Hindiston urushini tasvir qilibturlar...”*

Muarrixlar so‘zlariga qaraganda, bog‘ jannatday oromijon, Eram bog‘idek dilkusho ekan. *“Amir Sohibqiron u bog‘ va saroylarning qurilishi bilan bir oyni o‘tkazdi”,* deydi Nizomiddin Shomiy o‘zining “Zafarnoma” asarida.

Hayratda qoladigan joyi, saltanat yumushlari bilan nihoyatda band bo‘lgan Amir Temurday davlat arbobining bitta bog‘ barpo etishga bir oy vaqtini berishi, shunga fursat topa ola bilishidadir. Xuddi o‘sha yili Bog‘i Shimol qurilishida ham *“Sohibqiron bir oy yarim (bir yarim oy) o‘zi turib jahd etar edilar”* (Sharafuddin Ali Yazdiyning e’tirofi). Sohibqiron bog‘, madrasa, masjidlar qurilishiga juda jiddiy e’tibor berar, hamisha diqqat markazida tutardi.



Milodiy 1399-yilda boshlangan Jome’ masjidi qurilishida ham u shunday sobitqadamlikni namoyon etgan edi. Yana Shomiy deydi: *“Dorulmulk Samarqandda bir Jome’ masjidi qurib, bu xayrli ish bilan qudrat egasi (Alloh)ga yaqinlikka erishish niyatini qat’iylashtirdi... Oliy hazrat ishtiyoqining zo‘rligidan shaxsan o‘zi imorat tepasida hozir bo‘lar, uning tez bitishiga butun himmatini sarflar edi...”*

Sohibqiron kelganda, masjid poydevori o‘rnini qazishayotgan bahodir quruvchi yigitlarga dalda berib, so‘zlab ularning ko‘ngillarini ko‘tarar, rag‘batlantirar ekan. Yazdiy ham “Zafarnoma” asarida Jome’ masjidi qurilishiga to‘xtalib yozadi: *“Sohibqiron g‘oyat ihtimomidinkim (e’tibor berganidan, diqqat qilganidan), masjid ishida taallul (bahona, sustlashish) bo‘lmag‘ay (deb), o‘zi har kun kelib ishlagonlar boshig‘a turib, ihtimom qilur erdi. Va so‘rar erdi... Masjidi juma’da to‘rt yuz sakson ustun toshdin yasab... saqfini (shifti, gumbaz) toshdin yasadilar va to‘rt yonida to‘rt minora yasadilar. Masjid tugangandan so‘ng Dilkusho bog‘iga borib to‘ylar berdi. Ustakorlarga to‘nlar kiydurub, otlar mindurdi...”*

Demak, bog‘ barpo qilish, masjid yo boshqa bino qurish davlat ahamiyatidagi yumushlardan hisoblangan, ayni saltanat yumushi sanalgani aniq, ikkinchidan, Sohibqiron bog‘ni ham, masjidni yoki o‘sha barpo etilayotgan inshootni ham o‘zining ko‘z oldida qurishlarini, ishning bequsur-u benuqson chiqishini qattiq istaganini ko‘rsatadi.

Yana bir hayrat. Bu bog‘larda boy-u kambag‘al, xos-u om barobar emin-erkin sayr qilishlari o‘sha zamonlarda kam uchraydigan diqqatga sazovor hodisalardandir. Bog‘larda Ibn Arabshoh, Rui Gonsales de Klavixo singari tarixchilar zavq bilan kezishgan, ko‘rganlarini avlodlarga yozib qoldirishgan. Bunday bog‘larning faqat Samarqandda emas, balki bepoyon saltanatning boshqa mavzelarida ham barpo etilgani e’tiborni o‘ziga tortadi. Bular, albatta, insonparvarlikning yuksak ko‘rinishlaridandir.

Sohibqiron yoshligidan aziz-avliyolarga izzatu ikrom ko‘rgizib kelardi. Uning Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Toybodiy, Mir Sayyid Baraka singari zotlarga hurmat-e’tibori ma’lum. Tabarruk ziyoratgohlar, qadamjolarni obod qilishdagi sa’y-harakatlari tahsinlarga loyiq. Shahrisabzdagi Dor ut-tilovat, Dor us-saodat, Samarqanddagi Shohizindadagi Qusam ibn Abbos maqbarasi va boshqa maqbaralar, Amir Temur maqbarasi, ko‘plab xonaqohlar, Zangi ota majmui, Buxorodagi Sayfiddin Boxarziy, Chashmai Ayyub maqbaralari binolari Sohibqiron tomonidan qurilgan yo tubdan ta’mirlangan. Amir Temur o‘ziga g‘oyibona pir sanagan Shayx Nuriddin Basir (Qutbi chahordahum), Sulton Burhoniddin Qilich, Shayx Burhoniddin Sog‘arjiy, Shayx Safiuddin Yoqub Ardabiliy kabi siymolarga maqbaralar bino ettirdi. Bunday ehtirom-u izzat-ikromlarning oliy namunasi, albatta, Sohibqiron bunyod ettirgan “Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi, maqomoti oliy va mashhur” (Navoiy) Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi hisoblanadi.

Amir Temur har gal Yassi shahriga kelganida yoki har xil sabablar bilan shu tomonlarga yo‘li tushganda ziyoratni ulug‘ pirning mozoridan boshlardi. Dastavval bu yerda o‘n ikkinchi milodiy asrda qurilgan kichik maqbara mavjud edi.

Sohibqiron va uning davri tarixini mukammal yoritgan Sharafuddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, milodiy 1397-yil kuzida Sohibqiron Toshkent sari ravona bo‘ladi va undan o‘tib Yassi shahriga boradi. Tabarruk qadamjoni tavof etar ekan: *“Bu aziz Muhammad Hanifa o‘g‘lonlaridin turur, alayhi va ala olihi vassalom”,* deydi. *“Buyurdikim,* – deb yoziladi “Zafarnoma”da, – *ul mozorig‘a ustig‘a imorati oliy soldilar va bir ulug‘ toq (gumbaz) bog‘ladilarkim, ko‘k bila so‘zlashur erdi... Va farmon bo‘ldikim, tomlarini rangin koshin bilan muzayyan qilsunlar (chiroyli bezasunlar). Va Xojaning qabrini oq tosh bila yasadilar… Ikki yildan so‘ng ul imorat tugandi. Ul imorat tugagandan so‘ng, andag‘i faqir-u miskinlarg‘a ko‘b sadaqalar berdilar…”*

Xoja Ahmad Yassaviy qadamjosi hamisha Sohibqiron e’tiborida bo‘lgan. Maqbaraga maxsus vaqf tayinlangan, ta’minoti uchun davlat tomonidan unumdor yer maydoni, saroy, tegirmon va boshqa zarur mol-mulklar ajratilgan.

Amir Temurning bunyodkorlikka, umuman, obodonchilikka katta ahamiyat berganini uning mashhur “Tuzuklar”idan ham bilsa bo‘ladi. Bu narsa uning uchungina emas, balki butun saltanat uchun ham hayotbaxsh dastur vazifasini ado etadi va saltanat rusumiga aylanadi. *“Amr etdimki,* – deydi Sohibqiron, – *kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz (yer tagidan o‘tkazilgan suv yo‘li yoki ariq) qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa (ya’ni soliq) olmasunlar... xarob bo‘lib yotgan yerlarda korizlar qursunlar, buzilgan ko‘priklarni tuzatsunlar, ariqlar va daryolar ustiga ko‘priklar qursunlar, yo‘l ustida har manzilgohga rabotlar bunyod etsunlar... katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqir-u miskinlarga langarxona solsunlar, bemorlar uchun shifoxona qurdursunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dor ul-imorat (saroy) va dor ul-adolat (qozixona) qursunlar...”*

Ushbu so‘zlarning zamirida olam-olam ma’nolar yashirin. Bunyodkorlik saltanatda urfga aylanib, uning hayotbaxsh ta’siri nafaqat Sohibqiron, balki amirzodalar, malikalar, a’yonlar o‘rtasida ham keng tarqaldi. Bu hayotbaxsh urfdan ruhlangan Sohibqiron egachisi Qutlug‘ Turkon oqa, rafiqalari – malikalar Bibixonim va Tuman oqa, kelinlari Gavharshodbegim, Milkat oqa (Shohruh Mirzo xotinlari) kabi va boshqa malikalarning o‘z mablag‘lari hisobiga bunyod etgan shifoxona-yu hammom, xonaqoh-u madrasa, masjid-u rabotlari haqida tarixiy kitoblarda batafsil yoritilgan.

Aytilgan so‘zlar Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatiga bir chizgilar xolos...

Bu yil Sohibqiron Amir Temur tavalludining 688-yilligi keng nishonlanadi. Atrofimizga boqib, beixtiyor o‘sha Amir Temur bobomiz amalga oshirgan bunyodkorliklarni eslab faxrlanamiz, ko‘ksimiz tog‘day ko‘tariladi, quvonamiz.

Doim quraman degan o‘zbek xalqi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida o‘z ulug‘ farzandining hayotbaxsh an’analarini shiddat bilan davom ettirmoqda, shaharlar, saroylar, binolar, uylar, ko‘priklar va boshqa ko‘p inshootlar bunyod etilmoqda. Bundan g‘ururlanamiz, ko‘ksimiz tog‘day ko‘tariladi, quvonamiz.

O‘z-o‘zidan ulug‘ muarrix Sharafuddin Ali Yazdiyning quyidagi so‘zlari xayolimga keladi: *“(Sohibqiron) har yerdakim, imoratqa qobil yer ko‘rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi...”*

Bu qutlug‘ so‘zlar Amir Temurga ham, jonajon o‘zbek xalqiga ham bab-baravar tegishlidir.

**Muhammad ALI,**
**Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi raisi,**
**O‘zbekiston xalq yozuvchisi**

# HUSAYN BOYQARO “ZAFARNOMA”SI



Boshlanishi 1-sahifada.

Qo‘lyozma chiroyli ko‘chirilgan va matn oltin chiziqli ramka ichiga olingan. U Sher Ali degan shaxs tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozmada o‘n ikkita miniatyura mavjud. Kolofon so‘nggida qo‘lyozma Mir Jamoluddin Husayn degan shaxs tomonidan Akbar Shohga (1542-1605) taqdim qilingani haqida yozuv ham bor.

Biz qo‘lyozma haqidagi ma’lumotni Amerikaning Blumington shahrida joylashgan Indiana universiteti professori, kutubxonashunos olim Akram Habibullayevning 2022-yili nashr qilgan “Ajdodlar merosi: Amerikadagi qo‘lyozmalar” deb nomlanuvchi katalogidan bilib oldik. Shundan so‘ng qo‘lyozma bilan tanishish ishtiyoqi paydo bo‘ldi.

Qo‘lyozma AQShning Baltimor (Merilend shtati) shahridagi Jon Garrett uy-muzeyida saqlanadi. “Zafarnoma”ning mazkur qo‘lyozmasi “Husayn Boyqaro “Zafarnoma”si, Garrett “Zafarnoma”si yoki Baltimor “Zafarnoma”si degan yana boshqa nomlarga ham ega. Buning tarixi qiziq. Amerikada Industrial revolyutsiya zamonida temiryo‘llarni qurishga katta hissa qo‘shgan bankirlardan iborat Garrettlar sulolasi vakili bo‘lgan diplomat Jon Garrett (1872-1942) 1942-yili Prinston universitetidan “Zafarnoma”ning noyob qo‘lyozmasini sotib oladi. Buning tarixi quyidagicha:

Merilenddagi yirik temiryo‘l biznesi va bankir zodagonlari oilasidan bo‘lgan Jon Garrettga Baltimor shahridagi hashamatli uy-joy va uning yonidagi o‘nlab gektar masofani tashkil etgan yerlar meros qoladi. 1895-yili Prinston universitetini tamomlagandan keyin, Jon Garrett diplomat sifatida bir necha mamlakatda ishlaydi. U ma’rifatga qiziqishi tufayli rafiqasi Alis Garrett bilan birga osori-atiqalar, jumladan, ingliz va boshqa g‘arb tillaridagi adabiy, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, diniy va san’atga aloqador asarlar, noyob buyumlarni sotib olib, uyida to‘playdi. Hozir Jon Garrettning ushbu uy-muzeyida jami 35000 ta kitob va qimmatbaho asarlar saqlanmoqda. Jon Garrett Merilenddagi uyida, nafaqaga chiqqanidan keyin, rafiqasi bilan zodagonlar ishtirokida madaniy kechalar va adabiy majlislar uyushtirib turadi.

1925-yili Jonning ukasi Robert Garrett Parijdagi antiqa kitoblar do‘konidan noyob qo‘lyozma sotib olishga muvaffaq bo‘ladi. Bu kitob hozirda “Garrett “Zafarnoma”si” nomi bilan ilm ahliga ma’lum. Taxminlarga ko‘ra, bu XV asrda Husayn Boyqaro buyrug‘iga binoan bitilgan noyob qo‘lyozma. Robert qo‘lyozmani vatani Amerikaga olib keladi va akasi Jon ham bundan xabardor bo‘ladi. Ammo 1939-yili Robert bu qo‘lyozmani Prinston universitetiga sotib yuboradi.

San’at va ma’rifatni jondan sevgan Jon Garrett 1942-yili “Zafarnoma”ning mazkur qo‘lyozmasini Prinston universitetidan qayta sotib olib, Merilenddagi uyi kutubxonasida saqlaydi. Ammo oradan ko‘p o‘tmay Jon Garrett vafot etadi. Uning farzandlari bo‘lmagani bois Jon Garrett rafiqasi bilan Merilenddagi yirik yer mulk va uyini Jon Xopkins universiteti nomiga qoldirib ketadi. Garrettning to‘plagan antiqa buyumlari hozir uy-muzeyida saqlanadi va Merilend shtatining madaniyat merosi, noyob ma’naviy boyligi hisoblanadi.

Bu qo‘lyozmaning ilk sahifasiga turli sultonlar muhrlari qo‘yilgan hamda turli asrlarda manbaga egalik qilgan shaxs va kishilar imzolari bitilgan. Qo‘lyozmaning bosh sahifalari hashamatli bezatilgan. Asar fors tilida yozilgan va yaxshi holatda saqlangan.

Qo‘lyozma 1050 betdan iborat. O‘lchovi – 235 mm. X 152 mm. Muqovasi yangi davrga oid. Qo‘lyozmada o‘n ikkita miniatyura keltirilgan. Kolofonda xattot nomi Sher Ali, deb ko‘rsatilgan.

Umuman olganda, Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” solnomasi Temuriylar xonadonida juda mashhur bo‘lgan asarlardan hisoblangan. Ularning miniatyuralar bilan nashr etilishi, Movarounnahr va Xurosonda katta shuhrat topishi Amir Temur shaxsiyatiga bo‘lgan obro‘-e’tiborning yuksakligidan dalolatdir.

Amerikalik olima Eleanor Sims 1973-yili bu qo‘lyozma bo‘yicha Nyu-York universitetida dissertatsiya himoya qilgan. Simsga ko‘ra, aslida Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma” shoh asari temuriy shahzodalar saroyida juda mashhur bo‘lgan. Uning fikricha, “Garrett “Zafarnoma”si” XV asrda temuriy sultonlar tomonidan buyurtma berilgan 30 ta nusxa orasidagi bir nusxa bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, amerikalik diplomat Jon Garrett “Husayn Boyqaro “Zafarnoma”si” qo‘lyozmasining bugungi kungacha yetib kelishiga xizmat qilgan. Qo‘lyozmadagi Amir Temurning yurishlari tasvirlangan miniatyuralar tarixshunoslik va san’atshunoslik nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. “Husayn Boyqaro “Zafarnoma”si” ko‘proq G‘arb san’atshunos va tarixchi olimlari tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Endilikda “Zafarnoma”ning mazkur nodir qo‘lyozmasi taniqli olimlarimiz tomonidan maxsus tadqiq etilishi lozim.

**Aftondil ERKINOV,**
**filologiya fanlar doktori,**
**Gulandom YULDASHEVA,**
**mustaqil tadqiqotchi**

MULOHAZA

# EZGU ISHGA RUXSAT NE HOJAT?



**Ortda qolgan hafta yakunida Prezidentimiz raisligida ijtimoiy-ma’naviy hayotimizga daxldor muhim tashabbus – “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida joriy yilda amalga oshiriladigan tadbirlar, jumladan, qabristonlarni toza-ozoda saqlash, ularni insonga ruhiy quvvat baxsh etuvchi so‘lim manzillarga aylantirish masalasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi fe’l-atvorimizu hayot tarzimizga xos ancha-muncha kamchilik va nuqsonlar haqida mulohaza qilib ko‘rishga undashi bilan ahamiyatli bo‘ldi.**

So‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda mehnat jamoalarining istalgan sa’y-harakati yoxud tashabbusini “majburiy mehnat” sifatida talqin qilish, aybdorlarni izlash urfga aylanib borayotir. Ba’zida shu ketishda kishi qo‘lini sovuq suvga urmaydigan tanbalga aylanib, unda o‘z hayotini ham, boshqalar a’molini ham xavf ostiga qo‘yadigandek ezgin kayfiyat paydo bo‘ladi.

Bu tanballik ko‘pchilikni allaqachon kitobdan, gazeta-jurnaldan voz kechishga o‘rgatib ulgurdi. Internetda “bolalab ketgan” yengil-yelpi tomosha-yu oldi-qochdi xabarlarni ulfat tutib bo‘ldik. Afsuski, endilikda u xatarli epidemiya yanglig‘, tirik jonki bor, jism-u joniga o‘rnashib olmoqda, ruhiyatini abgor etmoqda.

So‘zlarimni mubolag‘aga yo‘ymang. Hatto ota-bobolari mangu qo‘nim topgan qabristonlarda boshlangan tozalash va obodonlashtirish harakatlarini biryoqlama talqin qilib, dunyoga jar solayotganlar bor. Yoshlarning o‘z ta’lim dargohlarini toza-ozoda saqlash, yon-atrofini ko‘rkam bog‘-u gulzorga aylantirish yo‘lidagi tashabbuslarini “majburiy mehnat”ga yo‘yib, “aybdorlarni jazolash”ga da’vat etayotganlar bor.

Vaholanki, e’tiqod, sabr, qanoat va inson irodasini tarbiyalashning eng birinchi vositasi bo‘lgan mehnatdan voz kechish, kitobdan yuz burish – o‘zini hayvoniy sifatga mubtalo etishdan o‘zga narsa emas. Aksincha, o‘zini borliqqa doxil, jamiyatga manfaatli, kelajakka mas’ul hisoblash – ikki dunyo saodatiga vosil etguvchi eng ishonchli yo‘ldir. Ulug‘ ajdodlarimiz hayoti – bunga yorqin misol.

### HAZRATI IMOM – ABU HAFS KABIR BUXORIY KIM EDI?

Butun islom olamiga Abu Hafs Kabir Buxoriy nomi bilan tanilgan ulug‘ fiqhshunos va faylasuf, ilohiyotshunos, buyuk muhaddis, ulamolar sultoni va sardaftari Abu Hafs Kabir Buxoriy hijriy 150 (milodiy 767)-yili Buxoro shahrida tavallud topib, hijriy 217 (milodiy 832)-yilda shu yerda vafot etgan.



Buxorodan uzoq islom shaharlari, xususan, o‘sha davrda islomiy ilm va madaniyat poytaxti hisoblanmish Bag‘dodga borib, hanafiy mazhabining asoschisi, ilohiyotchi, faqih, muhaddis Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit – Imom A’zam (699–767)ning taniqli shogirdi Imom Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy(vafoti milodiy 804-yil)dan ilm olgan.

Narshaxiyning yozishicha, Abu Hafs Kabir Buxoriyning sharofati bilan Buxoro “Qubbat ul-islom” – “Islom dinining gumbazi” unvonini olgan. Abu Hafsning o‘ziga “Kabir Buxoriy” – “Buxoriylarning kattasi” va “Imomi Hojatbaror” – “Hojatlarni chiqaruvchi imom”, “Hazrati Imom” degan unvonlar berilgan.

Abu Hafs Kabir islom huquqshunosligi asoslarini yaratgan yirik olim edi. Uning “Fatovoyi Abu Hafs” (“Abu Hafsning fatvolari”) deb nomlangan fatvolar to‘plami islom olamida ma’lum va mashhur bo‘lib, barcha faqihlar hazratning mazkur to‘plamiga suyanib ish yuritishgan. Uning ilmi dovrug‘i shu darajaga yetganki, Arab-u Ajamdan olimlar kelib, o‘zlariga mushkulot tug‘dirgan savollarga ul zotdan javob olib ketar edilar. El-ulus va ahli ilm o‘rtasida “Hazrat Abu Hafs aytgan bo‘lsalar – bunda shubha yo‘q”, degan qat’iy ishonch yurar edi.

Imom Buxoriydek ulug‘ zotga ustozlik qilgan hazrat Abu Hafs Kabir mangu qo‘nim topgan “Hazrati Imom” qabristoni buxoroliklar va qadim shaharni aziz-u mukarram bilgan insonlar uchun muqaddas ziyoratgohdir. Har kuni minglab yurtdoshlarimiz va mehmonlar bu yerni ziyorat qiladilar, duoyi fotihalarga some’ bo‘lib, ruhiy halovatga erishadilar.

O‘ziga xos ochiq osmon ostidagi muzey yanglig‘ taassurot uyg‘otadigan mazkur qabriston o‘nlab davlat va jamoat arboblarining so‘nggi manzili ekanligi bilan ham qadrli: buyuk kompozitor, o‘lmas madhiyamiz musiqasi muallifi Mutavakkil Burhonov, til va millat fidoyisi, professor Mustaqim Mirzayev, san’at arbobi, kino va teatr sahnalaridagi betakror rollari bilan ko‘p sonli muxlislar qalbidan joy olgan iste’dodli aktyor Muhammad Rafiqov, atoqli folklorshunos, professor Oxunjon Safarov, “uyg‘oq toshlar, tosh bitiklar kuychisi” deya ta’riflanadigan taniqli shoir Toshpo‘lat Ahmad, “Buxoroga Buxoro keldi”, “Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo” kabi satrlari katta-yu kichikning tilidan tushmaydigan Sadriddin Salim Buxoriy va yana ko‘plab ilm-fan, san’at va madaniyat namoyandalari qabrlarining har biri – baayni ibratxona.

Shubhasiz, Buxoroni “Qubbat ul-islom”ga aylantirgan zot va yana o‘nlab nomlari qayd etilgan, etilmagan fidoyilar mangu qo‘nim topgan manzil biz uchun aziz va mukarram. Bu manzillarga qo‘ngan gard – bizning qalbimizga qo‘ngan gard. Modomiki, bu gardlarni aritmas ekanmiz, qalbimizni zang bosadi.

### BAHOUDDIN NAQSHBAND AVLIYOLIK DARAJASIGA QANDAY YETGANLAR?

Muhammad Boqirning “Maqomoti shohi Naqshband” asarida ulug‘ pir va alloma Bahouddin Naqshband to‘g‘risida shunday rivoyat qilinadi:

Bir kuni shogird va hamsuhbatlari ulug‘ pirdan so‘radilar:

– Ustoz, Siz bu daraja va maqomlarga qanday erishdingiz?

Hazrat Naqshband javob berdilar:

– Rezachinligim tufayli.

Suhbatdoshlar hayron bo‘lib, javobning sharhini so‘radilar. Ulug‘ pir javob berdilar:

– Rezachinligimning ma’nosi shuki, oyoq ostida boshqalarning erkin harakatlanishiga xalaqit beradigan, manzil-u makon obodligiga putur yetkazadigan nimaniki ko‘rsam, xasmi, cho‘pmi, toshmi, kesakmi – bir chekkaga olib qo‘ydim. Toki yo‘ldan o‘tganlar ozorlanmasinlar, bu yerlarga ko‘zi tushganlarning ta’blari xira bo‘lmasin...



Suhbatdoshlar bu javobdan lol bo‘ldilar, rezachinlikning sharofati xususida chuqur mushohadaga berildilar.

Ulug‘ zotga yaqin bo‘lgan insonlar shahodaticha, ana shu rezachinlik odatlari tufayli hazratning etaklari va qo‘llaridan doimo tuproq hidi kelib turar ekan...

Darvoqe, mazkur rivoyatning o‘zgacha talqini ham bor. Unga ko‘ra, Xoja Bahouddinning rezachinliklari hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.) sunnatlariga og‘ishmay amal qilganliklari bilan izohlanadi. Ammo bu tamomila boshqa masala va boshqa bir maqolaning mavzusi.

### BUYUK FARROSH KIMLIGINI BILASIZMI?

Taniqli adib Omon Muxtorning “Buyuk farrosh” deb nomlangan romani bor. Ikki kitobdan iborat mazkur roman ulug‘ bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Romanda adib Alisher Navoiyni “buyuk farrosh”, deya ta’riflaydi.

Hayron bo‘ldingizmi? Shunday buyuk zotni, shoirlar avliyosini farrosh deb atash mumkinmi?

Gap shundaki, hazrat Alisher Navoiy buyuk zotlar mozorida farroshlik qilishni o‘zi uchun buyuk sharaf deb bilgan. Manbalar ma’lumotiga ko‘ra, ulug‘ shoir Haj ziyoratiga borish uchun hukmdordan bir necha marotaba ijozat so‘raydi. Ammo buyuk Alisherni saltanat tayanchi deb bilgan Husayn Boyqaro bunga izn bermaydi. Shunda ulug‘ shoir Boyqaroga murojaat qilib, o‘zini Hirotdagi Xoja Abdulloh Ansoriy mozoriga jorubkash (qabrlar atrofi va qabriston hududini tozalovchi, supuruvchi xodim, farrosh) lavozimiga ishga tayinlashni so‘raydi.

Husayn Boyqaro ulug‘ shoir va millat quyoshining bu iltimosini qabul qilganmi-yo‘qmi – bunisi muhim emas. Muhimi, ulug‘ shoir himmatining darajasi shu qadar ulkan-ulug‘vor bo‘lgan. “Temur tig‘i yetmagan joyni qalam bilan olgan” bo‘lsa-da, kamtarinlik va xokisorlik masnadiga xiyonat qilmagan. Bugun qanchalar ehtiyoj sezyapmiz, bunday fazilatlarga...

Alalxusus, keltirganlarimiz badiiy to‘qima emas. Ilm-u ma’rifatdan, xalqimiz tarixidan ozgina xabardor insonlar buni yaxshi biladilar. Maqsadimiz, qadim tariximizning ulug‘ sahifalaridan yoshlarimizni ham xabardor qilish. Toki ular kimlarningdir alahsirashlariga quloq tutib, zalolatga botmasinlar, tuproqqa tupurmasinlar. Bobomeros qadriyatlarimizga xiyonat qilmasinlar.

**Shodmon SULAYMON,**
**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir**

TILBILIM

# QO‘NUQ



**O‘tgan asrning 80-yillari, bolalik davrimizda, bu so‘z aynan shu shaklda bizning shevada ko‘p ishlatilardi: “Falonchining uyiga qo‘nuq tushdi”, “falonchining uyidagi mehmonlarga qo‘nuq bering”. Bu kabi jumlalarni, asosan, to‘ylarda eshitardik, chunki o‘sha davrdagi to‘ylarda uzoqdan kelgan yoki alohida e’tiborda bo‘lgan mehmonlar uchun to‘yxonadan tashqari qo‘ni-qo‘shni, yaqinlarning uylarida alohida ziyofat berilar va bu mehmonlar guruhi “qo‘nuq” (“qo‘noq”) deyilardi. Mehmonlar dasturxoniga qo‘yish uchun yemaklar, ovqat qilish uchun masalliq, go‘sht, non kabi mahsulotlar bir tugunga tugilib, to‘yxonadan keltirilardi. O‘sha paytlarda to‘yga oid atamaga aylangan “qo‘nuq” so‘zi ikki ma’noda: birinchisi, to‘yxonadan boshqa xonadonga tushgan mehmonlar guruhi; ikkinchisi, ular uchun to‘yxonadan keltiriladigan yemaklar tuguniga nisbatan aytilardi.**

Keyinchalik to‘ylarning shakli o‘zgardi. Oqibatda “qo‘nuq” ham iste’moldan chiqib qoldi. Bu so‘zning adabiy tildagi “qo‘noq” shaklini bilamiz. Ammo bu so‘z kitobiy tuyulgani uchun mahalliy so‘zlashuv tilimizga ko‘chmadi. Shunday qilib, so‘zlashuv tilimizda “qo‘nuq”dan ham, “qo‘noq”dan ham voz kechib, asli forscha “mehmon”ni saqlab qoldik.

“Qo‘nuq”, aslida, adabiy tildagi “qo‘noq”ning qadimiy shakli, Koshg‘ariy bobomiz ham “Devon-u lug‘otit-turk”da aynan shu shaklda keltiradi: “qonuq – mehmon. She’rda shunday kelgan:

Bardï ärän qonuq,
Bolub qutqa saqar,
Qaldï alïg‘ ujuq
Köro‘b ämnï jïqar.

Ma’nosi: Mehmonni baxt deb bilguvchi erlar o‘tib ketdi, sharpani sezsa, mehmon kirib qolmasin, deb chodirini buzadiganlar qoldi”.

“Devon”da boshqa bir o‘rinda esa “qo‘nuq” so‘zi “mehmon” emas, ikkinchi ma’noda, ya’ni “mehmonga beriladigan ziyofat” ma’nosida qo‘llangan: “Qïsh qonuqi o‘t – Qishning ziyofati o‘t(olov)dir”. Demak, ming yil oldin ham bu so‘z ikki ma’noda va aynan shevadagi kabi “qo‘nuq” shaklida qo‘llangan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida “mehmondorchilik” ma’nosida bir o‘rinda “qonuqluq” so‘zi ishlatiladi: “Telim tyrlyg-ul qonuqluq ashы – Bu mehmondorchilik oshi ko‘p turlidir”.

Qarangki, bu so‘z ming yil oldin Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib bobolarimiz qanday shakl va ma’nolarda qo‘llagan bo‘lsa, shevada aynan shu shakl va ma’nolarda bizgacha yetib kelgan. Afsuski, bizning avlod bu so‘zni ayni shu shakl va ma’nolarda qo‘llagan so‘nggi avlod bo‘lib qoldi.

“Qo‘nuq” va shu kabi ko‘plab so‘zlar “qo‘nmoq” fe’lidan yasalgan, ammo keyingi paytlarda bu fe’lning ma’no ko‘lami torayib, hozirda asosan qush, uchoq kabilarning uchib kelib qo‘nishiga nisbatan ishlatilmoqda. Ilgari esa, bu fe’l shu bilan birga: “biror joyda yerlashmoq, joylashmoq, ko‘chib kelib qo‘nmoq” kabi ma’nolarda ham keng qo‘llangan. Xususan, “Devon”da bu fe’l shunday izohlanadi: “qondï – qo‘ndi, biror narsaga joylashdi. Qush qondï – qush qo‘ndi, biror narsaga joylashdi. Buđun qondï – qabila (biror yerga) ko‘chgandan so‘ng qo‘ndi”.

Tilimizdagi bir qancha so‘zlar “qo‘nmoq” fe’lining aynan ana shu: “joy oldi”, “yerlashdi” ma’nolari asosida yasalgan:

Qo‘shni. Bu so‘z ham “qo‘nmoq” fe’lidan “qo‘n+shi” shaklida yasalgan, keyinchalik “n” va “sh” tovushlari almashinuvi sodir bo‘lgan. “Devon-u lug‘otit-turk”da har ikkala shakli keltiriladi: “Qoshnï – qo‘shni. O‘g‘uzlar “n” harfini “sh” harfidan oldin qo‘yib “qonshï” deydilar. Har ikkisi ham qoidaga mos va to‘g‘ridir”. Navoiy ham bu so‘zni “qo‘shni” emas, “qo‘ngshi” shaklida qo‘llaydi. Demak, “qo‘shni” so‘zining lug‘aviy ma’nosi: “yonma-yon qo‘ngan, ya’ni yerlashgan, joylashgan”, deyish mumkin. Qo‘ni-qo‘shni deganda esa, mazkur fe’ldan yasalgan ikki so‘z “qo‘nuq” va “qo‘shni” ishtirok etadi: aslida qo‘nuq-qo‘shni, keyinchalik qo‘ni-qo‘shniga aylangan. Shuningdek, tilimizda “qo‘nim topmoq”, “qo‘nimsiz”, “qo‘nolg‘a” kabi ibora va so‘zlar ham mavjud.

Mahmud Koshg‘ariy “Devon”da mazkur o‘zakdan yasalgan “qonum” so‘zini “urug‘-aymoq” ma’nosida keltiradi. “Qutadg‘u bilig”da esa, Yusuf Xos Hojib “o‘rin, joy” ma’nosida – “qonut” so‘zini qo‘llaydi (“Yanutы bayat bergə eđgү qonut” – Evaziga Tangri ezgu o‘rin (jannat) beradi.

“Devon”da, shuningdek, “qo‘nuq” otidan yasalgan so‘zlar ham keltiriladi: “qonuqladi – mehmon qildi, qonuqluq – mehmondo‘stlik, qonuqluq ev – mehmonxona” va hokazo.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham: qo‘noq (mehmon), qo‘noqxona (mehmonxona), qo‘noqlamoq (tunash uchun qushlarning qo‘nolg‘aga chiqishi yoki safardagi kishining biror joyda tunashi) kabi so‘zlar keltirilgan. Ammo, afsuski, bu so‘zlar ham keyingi paytlarda iste’moldan chiqib bormoqda. Ularga qayta hayot baxsh etish esa, siz-u bizga bog‘liq.

**Abduvohid HAYIT**

O’zbek tili kambag’al emas, balki o’zbek tilini kambag’al deguvchilarning o’zi kambag’al. Ular o’z nodonliklarini o’zbek tiliga to’nkamasinlar.

**Abdulla QODIRIY**

UYG‘OQ XOTIRA

# QODIRIYSHUNOS – QADRSHUNOS



**1**

Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi va yaqin o‘tgan davr adabiy tanqidi tarixi zahmatkash olim, professor Umarali Normatov adabiy-ilmiy faoliyati bilangina tugal tasavvur qilinadi. Adabiyotshunos olimning o‘zbek ilm-fani, filologik ta’lim uchun qilgan xizmatlari beqiyos. Yuzlab adabiy maqolalar, risolalar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar, olim rahbarligida himoya qilingan o‘nlab ilmiy tadqiqotlar, respublikamiz va yaqin xorijdagi yuzlab shogirdlar – bularning sanog‘iga yetish qiyin. Bularning bari bir inson umrining bezagi. Bularning hammasi olimning o‘ziga xos olami – bebaho ma’naviy xazinasi.

Aslida ulkan san’atkor adiblarning bebaho asarlari ta’siridan qalb larzaga keladi, sehrlanadi, zavq-shavqqa to‘ladi. Haqiqiy badiiy asar kuchi bois ko‘ngilda o‘zgacha bir harorat va yorug‘lik paydo bo‘ladi. Ichkarida obrazlar yoki voqelik mohiyati bilan g‘oyibona muloqotlar, bahs-tortishuvlar boshlanadi. Adib va uning ijodini anglash, asarlari ortidan kelgan bir olam go‘zal taassurotlarni bayon etish, tushuntirish baxti hammaga ham nasib qilavermaydi. Professor Umarali Normatov butun ilmiy-ijodiy faoliyati davomida ana shu saodatli damlardan bahra topdi. Haqiqiy umrboqiy, yaxshi asarlar domlaning ko‘ngil sirdoshiga va hayot yo‘lida yo‘ldoshiga aylandi.

Domla o‘z kitoblarida yozuvchi yoki shoir, ustozi yo shogirdlari to‘g‘risida yozadimi, adabiy gurung qiladimi – barchasida samimiyat yolqini balqib turadi. Qadri baland ilmiy-adabiy kitoblari o‘quvchiga manfaatli, ularda kitob o‘qish va uqish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi tabiiy.

**2**

Go‘zal asarlar jozibasi oddiy kitobxonni o‘ziga maftun qiladi, adabiyotshunos olimga tinchlik bermaydi. Olim qalb tug‘yonlarini, haroratli so‘zini boshqalarga aytishga, yozuvchi mahoratidan, adabiy qahramonlar qismatidan so‘z ochishga ehtiyoj sezadi. Shu zaylda turli – yangicha adabiy tahlil va talqinlar maydonga keladi.

Professor Umarali Normatovning Abdulla Qodiriy haqida yozgan “Qodiriy mo‘jizasi”, “Qodiriyning so‘nggi iltijosi” kabi kitoblari ayni jihati bilan e’tiborga molik, albatta. Ma’rifattalab o‘quvchi bundagi bayonlar orqali olimning zavq-shavqqa to‘la hayajonli adabiy-ilmiy tahlillariga guvoh bo‘ldi. To‘g‘risi, bunday asarlar bir-ikki yilda yoki bir o‘tirishda yozilmaydi. Ular uzoq izlanishlar, qayta o‘qishlar, o‘ylanishlar, ichki bahs-munozaralar izidan bunyod bo‘ladi. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodining barcha qirralarini, adibga munosabat bildirgan ilmiy asarlarni o‘rganish, tadqiq etish – bu oson ish emas.

Ustozning vaqtli matbuotda bosilgan maqolalarining soni olti yuzdan ko‘p, alohida kitob holida nashr qilingan asarlarining soni o‘ttizdan ortiq. Mening nazarimda, Abdulla Qodiriyga oid kitoblari – bu mutlaqo o‘zgacha, maroq bilan, zavq-shavq bilan, to‘lib-toshib, mehr-muhabbat bilan yozilgani bilan boshqa tadqiqotlardan ajralib turadi. Unda yozuvchining hayot yo‘lini, boshidan o‘tgan yaxshi-yomon kunlarni, fojiaviy qismatini yoritar ekan, domla adib yashagan murakkab adabiy-ijtimoiy muhit ruhini, uning atrofida kechgan ig‘voy-u malomatlar mohiyatini chuqur his etib kuyinib yozadi: “Qamoqda, tergov paytida ustiga bo‘htondan iborat ayblar qo‘yilganda, ayniqsa, hamkasblarining yuzsizlarcha munofiqlik qilayotganini ko‘rganda adib qanday ahvolga tushganini, bu imoni butun, o‘ta halol, rostgo‘y, mard yigit qalbida qanday tug‘yonlar kechganligini xayolan tasavvur qilish mumkin. Agar o‘sha keskin dramatik ruhiy holat to‘la tiklansa, shekspirona tragediya tug‘ilishi aniq”. Bunday aniq va keskin fikr-mulohazalarni manbalarni chuqur o‘rgangan va yozuvchining ruhiy-psixologik kayfiyatini xayolan tugal tasavvur qilgan olimgina yoza oladi.

Chinakam san’at asarlariga qayta nazar solinsa, qayta o‘qilsa, avval xayolga kelmagan yangi ma’nolar paydo bo‘ladi, natijada ularni yangidan baholashga zarurat ham tug‘iladi. Umarali Normatov Abdulla Qodiriyning asarlariga, arxiv hujjatlariga, mavjud ilmiy tadqiqotlar va biografik ma’lumotlarga nazar tashlar ekan, adibning badiiy tafakkur tarzini, ham iste’dodli ijodkor, ham o‘z zamonasining kishisi sifatidagi fazilatlarini teran tushunadi. Adib dunyoqarashi shakllangan muhit ob-havosi haroratiga, ta’lim-tarbiya maskanlarining saviyasiga to‘g‘ri tashxis qo‘yadi; bir qancha chigal masalalarga oydinlik kiritadi. Olim o‘z talqinlarida ijod psixologiyasiga, ijodkor inson tabiatiga xos barcha mayllarni inobatga oladi.



Umarali Normatov yozuvchining “O‘tkan kunlar” romani negizida, istiqbol qayg‘usi bilan yashayotgan qahramonlar orzusida “istiqlol qayg‘usi”ni ko‘radi. Romanda tasvir etilgan ijtimoiy muhitning muhim bir qirrasi – millat istiqboliga urg‘u beradi. Tabiiyki, shu olamshumul fikr – badiiy g‘oyaning ildizlari Abdulla Qodiriy shuurida, asl maslagi va uning hamfikr maslakdoshlari ichkarisida mavjud edi. Bunday sahifalarda jadid adiblarining orzu-armonlari kuzatiladi, bunday o‘rinlarda davrdosh davradoshlarning dard-doshligi va maslakdoshligi oydinlashadi.

Abdulla Qodiriyning donishmand qahramonlaridan biri “umr – otilg‘an o‘q emish”, deydi. Har o‘tgan kun, har o‘tgan davr tarixga, xotiraga aylanadi. Xotiralar esa oradagi masofa kengayib borgani sari soviydi, xira tortadi, yoddan ko‘tariladi. Eng qizig‘i, agar ijod ahliga oid xotiralar sun’iy, to‘qilgan, g‘ayritabiiy bo‘lsa, garchand ular zar muqovali kitoblar ichiga joylab qo‘yilsa ham, baribir, esdan chiqadi. Chunki ijodkorning insoniyat xotirasiga abadiy muhrlanishi uchun eng avvalo o‘quvchilar izlab, topib, suyib, o‘ylab, quvonib, yig‘lab o‘qiydigan asarlari, adabiy durdonalari bo‘lishi lozim.

O‘zbek millati manglayiga bitilgan Abdulla Qodiriydek iste’dod egasi oradan asrlar o‘tsa ham odamlar xotirasidan o‘chmaydi. Buning eng asosiy omili – adib yozgan go‘zal san’at asarlari. Umarali Normatov qodiriyshunos va qadrshunos sifatida Habibulla Qodiriy bilan Mas’ud Abdullayevning otalarini eslab yozgan asarlari hamda adibga zamondosh kishilarning maqolalariga diqqat qaratadi. Bu manbalar Qodiriyning tabiati, asl maslagi, iymon-e’tiqodi, ijod laboratoriyasining ayrim qirralarini ochishga yordam beradi. Zero, psixobiografik tadqiq usuliga ko‘ra maktublar, turli qo‘lyozmalar, kundaliklar, shaxsiy arxiv manbalari qatorida ijodkorning yaqinlari va zamondoshlari yozgan esdaliklarning yozuvchi badiiy olamini tushunishdagi qadr-qiymati beqiyos. Nemis olimlari uchun I.P.Ekkermanning “Gyote bilan gurunglar” asari bebaho xazina, ulug‘ adibning ma’naviyat mulkiga kirishda sehrli kalit sanaladi. Bir mahal ikki rus adibi – A.P.Chexov bilan M.Gorkiy o‘zaro suhbatlarida nemislarga havasi kelib, Lev Tolstoyning dono fikrlari isrof bilamiz? Shu paytgacha hujjatli, aniq tafsilotli ma’lumot topilmadi. 1937-yil 31-dekabrida uyidan olib ketilgani, tergovlar; tanish-bilishlarning ko‘rsatmalari, 1938-yil 4-oktyabrida otilgani xususida umumiy ma’lumotlar bor, xolos. Nazarimda, Umarali Normatovning silsila xotiralar asosida yozgan “Qodiriyning so‘nggi iltijosi” maqolasi adib umrining oxirgi lahzalari yuzasidan yaxshi tasavvur uyg‘otadi; ko‘ngilga taskin beradi. O‘quvchi maqola ta’sirida “inson uchun dunyoda o‘lumdan qo‘rqunch narsa yo‘q”ligini juda teran his etgan shaxsning mardligi va jasoratiga tahsin aytadi. Qolaversa, bu manzara “Mehrobdan chayon” romani bosh qahramoni, o‘limga hukm qilingan Mirzo Anvar holatiga oid bir epizodni ham esga soladi. “Dor ostida Anvarning qo‘li yechilib, tahorat olish uchun unga suv berildi. Chunki bu mahkumning qonuniy haqqi edi... Anvar tahoratlanib, ustidagi to‘nini yerga yozdi. Jallodlar doirani bir oz kengaytib, Anvar ikki rakat namoz o‘qidi...” Abdulla Qodiriy suyukli qahramoniga o‘limi oldidan, dor ostida shunday bir qonuniy huquqni “bergan” ekan, o‘zi ham o‘limi oldidan hukm ijrochisidan, avvalo, o‘z “qonuniy haqqi”ni so‘rashi, ikkinchi tarafdan, “qayralayotgan pichoqqa butunlay parvosiz, qo‘rquvsiz” qarashi ancha ishonchli va tabiiy ko‘rinadi.

To‘g‘risi, menda Mas’ud Abdullayevdan meros – og‘zaki xotira asosida yozilgan bu maqola, mash’um vaziyat tafsiloti – mahkum adibning suv so‘rashi, tahorat olib ikki rakat namoz o‘qishi, taqdir hukmiga bo‘yin egishi va tuproqdan tashqarida bir oyoqning ko‘milmay ko‘rinib qolishi – barcha-barchasini aniq-tiniq tasvirlagan fojiaviy pafosli yaxshi bir hikoya o‘qilganidek taassurot qoldirdi. Chunki tuhmat va xiyonatlarga bardoshli adib to‘qqiz oylik ruhiy azoblarga qiyosan jismoniy o‘lim qarshisida mardona tura olishi mumkin edi. Alloh zikri bilan kalimai shahodatni aytib jon taslim etish, jannatdan umidvorlik iymonli odam tabiatiga xos. Shu ma’noda Qodiriy umrining so‘nggi lahzalari to‘g‘risida har qanday boshqa, turli versiyalar bo‘lmasin, maqolada bayon qilgan voqea mantiq kuchi bilan ajralib turadi. Bu “so‘nggi iltijo” adib muxlislarining yuragini o‘rtab, zirqiratib... xotirjam qiladi. Qolaversa, domlamiz kelajakda bunga qaraganda ishonchli manba topilish ehtimolini inobatga olib, xoslik yuzasidan, oldindan uzrini aytadi va ular uchun ham tadqiqlar eshigini ochiq qoldiradi.

**3**

O‘ylab ko‘rsam, men professor Umarali Normatovni “Sharq yulduzi” jurnali orqali maktabni bitirish arafasida – o‘tgan asrning 80-yillarida tanigan ekanman. O‘qilgan qaysidir roman qahramoni ismi ta’siridanmi, hartugul, keyinchalik bir jamoada baqamti ishlash, ustoz-shogird tutinishimiz mutlaqo xayolimga kelmagan Umarali Normatov ismi ortidagi munaqqid o‘sha g‘oyibona tanishuv mahalida juda yosh va navqiron bo‘lib ko‘ringan edi. Universitetga o‘qishga kirib qarasam, Umarali Normatov ulkan olim, professor, kafedra mudiri, fan arbobi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi ekan.

Biroq o‘quvchilik tasavvurimdagi o‘sha dastlabki beg‘ubor sifat, to‘g‘risi, ko‘p yillar o‘zgarmadi. Yurakdan chiqqan samimiy ma’ruzalar, maroqli va jo‘shqin suhbatlar... Ijodkor inson uchun yozganlari o‘ziga va o‘zi yozganlariga o‘xshasa – bu ham saodat.

Havasdan ko‘ngil o‘sadi, bu ajib fazilatdan bog‘lar mevaga kiradi. Havas – benihoya go‘zal insoniy fazilat. Umarali Normatov tabiatida havas kuchli. Birovga hasad qilgani yoki bema’ni g‘urbatlarga berilgan holatlarini aslo eslay olmadim. Agar gurunglar biror sabab nojo‘ya tomon burilib qolsa, so‘z o‘nqovini poylab, ustoz sekingina o‘zining beg‘ubor va davomli kulgilari bilan davra ahlining fikrini, suhbat yo‘rig‘ini boshqa tarafga yo‘naltirganlarini ko‘p kuzatganman. Umarali Normatov tabiatida haqqoniylik kuchli. Fikr bayonlarida, biror asar ta’rif va tavsiflarida ba’zan mubolag‘a bo‘ladi. Bu mubolag‘a domladan suhbatdoshiga ham yuqadi. Ammo ustozning birovni aldashi, nomiga bo‘lsa ham yolg‘on gapirishlari – bular aslo bizlarning tasavvurimizga sig‘maydi. Zero, chin ustozlik, chin muallimlik ham ulkan saodatdir. Bunday saodat darajasiga zinama-zina chiqiladi. Bunday saodat sha’ni misqollab yig‘iladi. Umarali Normatov el-yurt ardog‘i-ehtiromiga, shon-shuhratga erishdi, ma’naviyat pillapoyalaridan yuksak bir rutbaga ko‘tarildi. Bu daraja va martabaga aslo zaha yetmadi. Holbuki, ustozimiz ham inson o‘laroq qanchadan-qancha qaltis vaziyatlarga duch keldi, muhit girdobiga tushdi. Umr yo‘ldoshlari, o‘z vaqtida adabiyot muallimasi bo‘lib o‘quvchilarga saboq bergan Munira opamiz domlaning ilm va ijod yo‘llarida ustozga umr bo‘yi chinakam maslakdosh, fikrdosh va yo‘ldosh bo‘ldi. Shu sababli hali shu kunga dovur Umarali Normatov uylari ostonasidan qo‘ni-qo‘shnilar, tanish-bilishlar, hamkasblar, shogirdlar qadami uzilmaydi. Buning o‘zi e’tirof va e’tibor, shuning o‘zi ham ulkan baxtu iqboldir aslida.

Yaxshi insonning yodga olinishi va odamlar xotirasida yashashi – bunda ham hikmat va ibrat bor, albatta.


**Bahodir KARIMOV,**
**filologiya fanlari doktori, professor**

E’TIROZ

# “XON”MI, “JON”MI?
## Yoki bir tovush tashvishi

**Bugun internet tarmoqlari taraqqiy qildi. Badiiy asarlar ularga joylanmoqda. Noshirlar asl manbadan ko‘ra adabiy o‘zanlardan ham olib, kitoblar nashr qilayotgan hollari yo‘q emas.**

Sal avval “Mutolaa” ko‘rsatuvida “O‘tkan kunlar” romani o‘qildi; qarab zavq bilan tinglab o‘tirdim. Romanning birinchi bo‘limidagi bir so‘z qulog‘imga jinday g‘alati eshitildi. Yusufbek hojining tilidan aytildi u so‘z. Hayron bo‘ldim. Eshitganimga ishonmadim. Biror daqiqa o‘tmay Yusufbek hoji tilidan yana takrorlandi: “jon janobi”... Haqiqatan ham g‘alatiroq birikma. “O‘tkan kunlar”ni qo‘limga oldim. 20-yillardagi nashriga qaradim. 1994-yilgi nashridan o‘qidim. Yusufbek hoji bir asrdan beri “Agar manim xizmatlarim shunday iltifotlarga loyiq ko‘riladirgan bo‘lsa, xon janobidan so‘raydirgan bir taklifim bor”, “Agar manim bu xizmatlarim xon janobining marhamatiga loyiq ko‘rilur ekan, menga eng manzur bo‘lgan mukofot – o‘g‘limning ozod qilinishidir”, deydi “ko‘ziga yosh olib”. Hoji hamon “xon janoblari” demoqda. Ammo “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti tomonidan 2018-yili chop etilgan “O‘tkan




kunlar” romanining 162-163-betlarida uch marta “xon janobi” o‘rniga “jon janobi” berilibdi. Darhaqiqat, “jon janobi”da jumla va fikr mantig‘i buziladi.

Romanning internet tarmog‘iga berilgan qaysi bir nusxasida ham shu xato bor. Zamon taraqqiyotining nazokatini qarangki, “xon”ni “jon”ga do‘ndiribdi. Agar bu so‘zlar ismlarga qo‘shiladigan hurmat-izzat yoki erkalash tarzidagi “-xon, -jon” tarzida kelsa-yu, chalg‘ib adashilsa, bunda ehtimol kechirilishi mumkindir. Ammo alohida ma’no tashiyotgan “xon” va “jon” so‘zlari o‘rin almashsa, ma’no siyqalanadi. Bir tovush qadri, qiymati, quvvati aniq sezildi.

Ehtimol siz, “jon” bo‘ldi nima-yu “xon” bo‘ldi nima, dersiz beparvogina. Ammo badiiy adabiyot ba’zida bir tovushning evrilishlaridan bunyod bo‘ladi. Oq va qora, o‘lik va tirik, yer va osmonlar qadar ma’no farqlari bir tovush evaziga maydonga keladi. Bir tovush xatosi tufayli “iymon” – “yomon” yoki “odam” – “adam” (yo‘q, yo‘qlik) bo‘ladi.

“O‘tkan kunlar” romanini turli nashriyotlar gohida internet tarmog‘idan sug‘urib olib nashr qilmoqda. Bundagi e’tiborsizlik kitoblarga ko‘chmoqda. Gapim – har qanday mumtoz asarni nashr qilishda juda hushyor bo‘lmoq lozim. Asl matn buzilishidan muallif ruhi bezovta bo‘ladi, o‘quvchi esa chalg‘iydi.

**Bahodir NURMUHAMMAD**

TARMOQLARDA NIMA GAP?

# CHASHMA BO‘YIDA TASHNA

**O‘zbek xalq iboralari umumiy mulkimiz, faqat bu boylikdan oqilona foydalana bilish kerak. Har bir viloyatning o‘z lahja-yu shevasida maqol-matallar ham qaynar xumchaday toshib yotibdi. Lekin ko‘mib qo‘yilgan tillo to‘la sandiq ustida o‘tirgan och-nahor va yupun, odamga o‘xshaymiz.**

Bizning bobolar-u momolar maqol qo‘shmay gap aytmasdi. Ziynatlangan so‘z, birinchidan, bolaning esida o‘rnashib qolsa, ikkinchidan, uning tasavvuri sayqallanishiga, badiiy didi shakllanishiga xizmat qilardi. Bugun-chi? Muomala nutqimiz bor-yo‘g‘i uch yuz-to‘rt yuz so‘z atrofida aylanadi. Yoshlar so‘zning rangi, vazni, shaklini his qilmaydigan mavjudotga o‘xshab qoldi. Ishonmasangiz ularning o‘zaro suhbatlariga bir quloq tutib ko‘ring. “Anaqa”, “anaqqisa”, “boru”, “haligidaqa”, “tak chto”, “yesli cho”, “za to”, “uje”, “daje”...

Bu esa maktablarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish sifati pasayib, kitobxonlik darajasi tushib ketgani bilan ham bog‘liq. Ko‘pchilik tilimizning boyligidan bexabar, o‘z nutqidagina foydalanadigan so‘zlarni umumiy til xirmoni deb biladi.

Hozir odamlar juda kam suhbatlashishi, asosan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi sababli til boyligi judayam qashshoqlashib ketmoqda. Shuning uchun ham katta yozuvchilarning asarlarini o‘qish, keksalar bilan ko‘proq suhbatlashish ahamiyatlidir. Men yoshlarimizga Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev, Xayriddin Sulton, Murod Muhammad Do‘st, Tog‘ay Murod, Erkin A’zamlarning nasrini o‘qib, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim... larning nazmini yod olishni tavsiya qilaman.

Asosan rasmlar, videoroliklar ommalashib ketgani ham tilning qashshoqlashishiga olib kelyapti. Shu ketishda gunglarga o‘xshab, imo-ishoralar, smayliklar bilan gaplashishga o‘tamiz. Bir daqiqa to‘xtovsiz ma’noli gapira olish jinnilik belgisiga aylanadi!

Endi biz bolalikda o‘qib, beixtiyor yodaki bo‘lgan G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidan bir shingil havola qilaman (kitobga qaramasdan, esimda qolganini yozyapman):

“...Har hafta chorshanba kuni kechgacha mening “hordiq” kunim – jumam hisoblanar edi. Erta bilan Hoji bobo qo‘limga yarim tanga uch miri juma puli berib:

– Ma, bolam, o‘ynab kel, barvaqt qayt. Baqqolning maymunidek kim ko‘ringanga ajuva bo‘lib yurma, pochtachining otidek har bir do‘konning oldida to‘xtab, ag‘rayma, qassoblikka kirib qolgan begona itdek ko‘ringan bilan yoqalashma. Hayitda qandolat bozoriga tushgan qishloqidek badnafs bo‘lma, ko‘ringan narsani olib yeya berma. Ha, shunday bo‘lsin bolam, shunday bo‘lsin...”

**Begali BEK**

YURT QAYG‘USI

# JADID PEDAGOGIKASI



**Milliy o‘zlikni shakllantiradigan uchlik – o‘tmish, bugun va kelajak hamma davrlarda ham zamonning ziyolilari, xalqning kelajagi uchun qayg‘uradigan fidoyilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ayni kunda ham bu haqiqatni yanada teran anglash, yangi rivojlanish bosqichida boy milliy tajribadan samarali foydalanish masalasiga davlat darajasida katta ahamiyat qaratilmoqda.**

**Avvalo, Renessans pedagogikasi tarixiga qisqa nazar tashlasak.**

O‘zbekiston hududida birinchi Renessans pedagogikasi Sharqda pedagogik fikrlar rivojlanishi uchun katta hissa qo‘shgan Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar nomi bilan boshlanadi. Yevropa va Amerikada XX asrning 50-yillarida paydo bo‘lgan insonparvarlik pedagogikasi aslida Sharqdagi ilk Uyg‘onish davri pedagogikasining tub mohiyati va negizini tashkil etgan.

Ikkinchi Renessans pedagogikasining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti esa temuriylar saltanati bilan bog‘liqdir. Bu davrda yashab ijod qilgan Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning faoliyati va ilmiy-pedagogik qarashlari tahsinga sazovordir.

Mirzo Ulug‘bek o‘z davrida uchta (Buxoro, Samarqand va G‘ijduvonda) madrasa qurdirib, oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilgan. Mirzo Ulug‘bek madrasalaridagi ta’lim olish uch bosqichni (anda, aust, a’lo) o‘z ichiga olib, diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal o‘rgatuvchi chinakam ma’nodagi oliy ta’lim muassasasi namunasi bo‘lgan. E’tibor qaratilsa, bugun jahonda oliy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash bosqichlarining (bakalavr, magistr, doktorantura) yorqin namunasi Mirzo Ulug‘bek tomonidan ilk bor amalga oshirilganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Yurtboshimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, mamlakatimizda “Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar va shu yo‘lda o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar”.

Uchinchi Renessansga erishish o‘z navbatida, yangi Renessans pedagogikasini yaratishni talab etadi. Bu esa milliy Uyg‘onish pedagogikasi atoqli vakillarining ilmiy-pedagogik, adabiy merosini chuqur o‘rganish hamda innovatsiya va tarixiy tajribani uyg‘unlashtirishni taqozo qiladi.

Milliy Uyg‘onish pedagogikasining asoschilaridan biri Abdulla Avloniydir. Ma’lumki, jadidlarning asosiy maqsadini “Turkistonni faqat ilm-u ma’rifatgina ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy tanglikdan xalos etadi”, degan bosh g‘oya tashkil etgan. Ana shu sababli ular o‘z qarashlarini xalq ichida keng targ‘ib qilish maqsadida ona tilida ta’lim beradigan yangi usul maktablarini ochishgan, maktablar uchun darsliklar yozishgan, gazeta-jurnallar chop ettirishgan, teatr truppalarini tashkil qilishgan. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim-tarbiya sohasiga innovatsiyalarni joriy etish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatishgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonovlarning izdoshi sifatida Abdulla Avloniy jadid ma’rifatchiligini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish, ilmiy pedagogikani milliy ta’lim-tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari bilan boyitish, ta’limning xalqchilligi va ommaviyligiga erishish kabi masalalarga e’tibor qaratganligi yangi Renessans pedagogikasining ustuvor yo‘nalishlari bilan hamohangdir.

Abdulla Avloniy 1913-yilda nashr ettirilgan “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “Pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir”, deb bu fanga o‘zbek ziyolilari orasida birinchi bo‘lib aniq va to‘g‘ri ta’rif bergan.

Olimning fikricha, tarbiya orqali “vujud quvvatlanadi, fikr nurlanadi, axloq go‘zallanadi, zehn ravshanlanadi”. Shuning uchun u tarbiyani bola tug‘ilgan kunidan boshlamoq kerakligini uqtiradi. Bolaga badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi berilib, uni yaxshi xulqlarga o‘rgatib, ilmli qilmoq lozimligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Tug‘ub tashlov ila bo‘lmas bola,
bo‘lgay balo sizga,
Vujudi tarbiyat topsa,
bo‘lur ul rahnamo sizga, –

deb tarbiyaning inson hayotidagi o‘rnini yuqori baholaydi hamda o‘z asarida pedagogikaning yo‘llari va vositalarini ham bayon etadi.

Yangi Renessans pedagogikasining konseptual g‘oyalari o‘z ifodasini topgan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ni amalga oshirishning birinchi bosqichi ham olimning qarashlari bilan hamohangdir: oilalarda (ikki davr asosida: birinchisi – homila davri, ikkinchisi – bola tug‘ilganidan uch yoshgacha bo‘lgan davr).

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuv masalasi ilgari surilgan. Abdulla Avloniy esa o‘z davrida mazkur tushunchani “odat” atamasi orqali quyidagicha talqin qilgan: “Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi”.

Renessans pedagogikasining ustuvor yo‘nalishi hisoblangan mahalla va oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari to‘g‘risida ham pedagog olimning qarashlari diqqatga sazovordir. Avloniy ta’kidlab o‘tganidek, “Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste’dod va qobiliyatni, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo‘lur. Qush uyasida ko‘rganini qilar”.

Olimning valeologiya (sog‘lom turmush tarzi) haqidagi qarashlari ham mutlaq haqiqat bo‘lib, hech qanday izoh va tahlilga ehtiyoj sezmaydi: “Badanning salomat, quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdur”. Olim o‘z fikrini davom ettirib, poklikning shaxs aqliy qobiliyatiga va hissiy holatiga ham ta’sir ko‘rsatishiga doir aniq dalillarni keltirib o‘tadi: “Poklik zehn-u idrokingni keng o‘tkur qilur. ...Poklik musulmonlig‘ning ildizidur”.

Renessans pedagogikasi uchun xos sanogen, ya’ni sog‘lom fikrlashni rivojlantirish masalasi ham olimning e’tiboridan chetda qolmagan. Uning fikr tarbiyasi haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogik-psixologik fanlarda tafakkurning alohida turi sifatida e’tirof etilayotgan sanogen va patogen fikrlashga berilayotgan ta’riflarga har jihatdan mos keladi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur...

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bo‘lur o‘tkur,
Fikring oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o‘lur, benur”.

Abdulla Avloniyning ilm-ma’rifat va axloqqa doir fikrlari juda chuqur tahlil va talqinni talab etadi. Muhtaram Prezidentimiz har bir maktab binosida yozib qo‘yilishi shart ekanligini alohida ta’kidlagan, olimning pedagogik qarashlarini yaxlit tarzda o‘zida aks ettirgan quyidagi g‘oya esa hech qachon o‘z zalvori hamda ahamiyatini yo‘qotmaydi: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”.

**Begzod XO‘JAYEV,**
**pedagogika fanlari doktori,**
**professor**

TARIX VA TAQDIR

# SULTON QORI QISMATI

**Jadid ziyolilari yuksak taraqqiyotga erishgan, milliy davlatchilik an’analariga asoslangan hur Vatani bo‘lishini istashdi. Biroq ularning ko‘pchiligi jismonan mahv etildi. Ular orasida xalq tayangan va ardoqlagan davlat arboblari, huquq-tartibot idoralari xodimlari ham bor edi. Katta qirg‘in davrining qonli bo‘hronlari Xorazm diyorining atoqli farzandi, vatanparvar jadid Sulton qori Jumaniyozovni ham chetlab o‘tmadi.**

Jumaniyozov Sulton qori 1878-yili Urganch tumani Qorovul qishlog‘ida tug‘ilgan, yoshligidan ilm va hunar o‘rgangan. Urganchdagi eski maktabdan keyin qorixonada to‘rt yilcha o‘qib, Qur’onni yod oladi, qori bo‘lib yetishadi. Ayni paytda tikuvchilik, soatsozlik hunarlarini egallab, o‘n sakkiz yoshidan mustaqil mehnat bilan shug‘ullana boshlaydi.

XX asrning 20-yillaridan Sulton qori ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi. 1921-yilda RSFSRning komil huquqli vakillari XXSR raisi Polvonniyoz hoji Yusupov hukumatini aksilharakatchi sifatida baholab, g‘ayriqonuniy ravishda Xivada davlat to‘ntarishi uyushtirdilar va muvaqqat inqilob qo‘mitasi tuzdilar. Polvonniyoz hojining guvohlik berishicha, bu jarayonlarda “Urganchdin shahar muhofaza boshlig‘i Sulton qorini ham bir bahona birlan keltirib zindonga hibs qilganlar”. Sulton qorining xalq orasida nufuzi va ta’siri juda baland bo‘lib, qamoqqa olinganini bilgan aholi uni himoya qilish uchun darhol qo‘zg‘aladi. Xalq oyoqqa turib sovetlardan Sulton qorini zindondan bo‘shatishni talab qiladi. Talab bajariladi...

Sulton qori 1922-yil so‘ngida XXR maorif xalq komissari lavozimiga tayinlanadi. 1923-1925-yillarda adliya xalq komissari, Xorazm Xalq Respublikasi MIK raisi lavozimlarida ish olib boradi. Adliya xalq komissarligi sud-tergov organlarini boshqaradi.

1923-yilda Xorazmda sud-huquq islohotlari amalga oshirildi va uning asosida Xorazmda xalq sudlari tashkil etildi.

1923-yil 17-20-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tgan Xorazm Xalq vakillarining 4-qurultoyda XXSRni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi(XSSR)ga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Sulton qori Jumaniyozov XSSRning birinchi adliya noziri etib saylandi. Bu hukumatning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqilishida Sulton qori Jumaniyozov katta hissa qo‘shdi.

1924-yil yozida Xorazm XSR MIQ raisi Sulton qori Jumaniyozov va D.Rizayev Moskvaga borib, SSSR Tashqi ishlar xalq komissari Chicherin bilan uchrashadilar va Xorazmning davlat mustaqilligini saqlab qolish, avvalgi imzolangan shartnomalarga amal qilishlarini talab qiladilar. Lekin bu masalada yordam yo‘qligini sezgan Sulton qori va Davlat Rizayev zudlik bilan Xorazmga qaytib, ushbu masala yuzasidan Toshhovuz shahrida syezd chaqirishadi. Syezdda milliy davlat chegaralanishi masalasi muhokama qilinadi. Biroq Turkiston ziyolilari, Xorazm jadidlari qanchalik kurashmasin, 1918-yil tugatilgan Turkiston muxtoriyati kabi, 1924-yil sovetlarning milliy chegaralanish siyosati oqibatida Xorazm XSSR va Buxoro XSSR tugatiladi.

Sulton qori Jumaniyozov milliy kadrlarni qo‘llab-quvvatlovchi do‘stlari yordamida partiyaga qayta tiklanadi. Akmal Ikromovning aralashuvi bilan unga qo‘yilgan barcha ayblar bekor qilinadi, hatto davlat va xalq oldidagi xizmatlari inobatga olinib, unga shaxsiy nafaqa tayinlanadi. Shundan so‘ng uning faoliyati madaniy sohani rivojlantirishga yo‘naltiriladi va 1930-1934-yillarda turli tumanlarda xizmat faoliyatini olib boradi. Partiya komiteti Xonqa tumanida madaniy-ma’rifiy ishlarda ishlaydi, so‘ngra Xiva muzeyiga direktor etib tayinlanadi. Bu lavozimda u 3 yil ishlaydi.

Sulton qori Jumaniyozov 1937-yil 27-avgustda aksilinqilobiy trotskiychilarni targ‘ib qilganlikda ayblanib, qamoqqa olinadi. Shu kunning o‘zida uning Xiva shahridagi xonadonida tintuv o‘tkaziladi. Tinimsiz so‘roq va qiynoqlardan keyin S.Jumaniyozov 1924- yilda XXR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi sifatida aholini qurollantirish to‘g‘risidagi buyruqni imzolaganlikda, shuningdek, “Milliy istiqlol” aksilinqilobiy tashkilotiga a’zolikda, A.Ikromov bilan yaqin aloqada bo‘lib, fashizmparast tashviqot olib borganlikda ayblanadi va otuvga hukm qilinadi. Hukm 1937-yil 26-dekabrda ijro etiladi.

Sulton qori Jumaniyozovning o‘g‘li rahmatli Anvar Jumaniyozov 2020-yil bahorida quyidagicha guvohlik bergan edi: “Sulton qorining o‘g‘liman. Hozir yoshim to‘qson birda. 1936-yil otam uydan ketgandan keyin biz otamni boshqa ko‘rmadik. Oilamiz, ahvolimizni yomon qildilar. Uylarimizga kirib, bor bisotimizni oldilar, opamlarni, bizlarni urdilar. Yomon ahvolga soldilar, bizning oilada non, pul bo‘lmadi, hech nimamiz qolmadi. Qayerga borsak, biz uchun hech nima yo‘q edi. Nonimizni, tansiq taomlarimizni yeb yurgan odamlar ham bizning uyga endi kelmay qo‘ydilar. Shunday yomon ahvollarni ko‘rdik bizlar. Bir kuni (tashvish ichida) onam bilan Lenin bog‘i yonida o‘tirgan edik. Bir qarab kel qani, shu tomonda nima gap bo‘lib turibdi ekan, dedi onam. Tikuv fabrikasi yonida bir yo‘lak bor edi NKVD binosiga olib chiqadigan. Shu yo‘ldan olib keldilar otamni. Shu yerda qo‘shnimiz Sulton aka: “Sulton qorini, boy odamlarni olib kelayotirlar”, deb turgan ekan, meni ko‘rib: “Anvar bu yoqqa kel, otangni olib kelayotirlar”, dedi. Sulton qori,



Safo Mug‘anniy, otam bilan birga qamalgan urganchlik Durdi qori degan insonni olib kelayotgan edilar. Xivalik Safo Mug‘anniy soz chertgani uchun aksilinqilobchi deb uni ham qamadilar. 20 nafar militsioner bor edi. Otamning boshida gruzinlarnikiga o‘xshash popoq bor edi.

Bizlar besh bola edik. 1933-yilda tug‘ilgan inim bor edi, ismi Ikrom edi. Uyimizga birovlar kelib, onamga bolangning ismini o‘zgartirasan, aks holda qamaymiz, deb qo‘rqitishdi. Ukam Ikromning ismini Komil deb o‘zgartirdik.

Opam Zumradni, og‘amni armiyaga olib ketdilar. Men raykomga kelib yig‘ladim. Meni yuboringlar opamning o‘rniga urushga, men axir 13 yoshga kirdim, men ketay, dedim. So‘zimni hech kim tinglamadi. Bechora opam 2 yildan ortiq Ukraina frontiga urushga borib keldi”.

Sulton qori Jumaniyozov o‘z davridagi ko‘plab jadidlar bilan birga Vatani ozodligi, xalq va millat manfaati yo‘lida og‘ishmay qat’iyat ko‘rsatdi. U chuqur bilimi, jasorati bilan Turkiston mustaqilligi, turkiy dunyo birligi yo‘lida og‘ishmay faoliyat yuritdi.

Sulton qori Jumaniyozovning ibratli hayot yo‘li, porloq yodi xalq xotirasida mangu qoladi.

**Yulduzxon RAHMONOVA,**
**tarix fanlari nomzodi**

XOTIRA AZIZ

**(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).**

**Boboyev Tosh** – 1904-yili Bauman rayoni Iskagari qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zolari bilan yaqindan aloqa bog‘lagan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aksilinqilobiy yig‘ilishlar tashkil qilganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi kurashish uchun ko‘rsatmalar berganlikda, xalq dushmanlari F.Xo‘jayev va boshqalarni maqtaganlikda ayblangan. 4541-sonli ish bo‘yicha 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan, jazo muddati 1937-yil 14-avgustdan hisoblangan.

**Bahriddinxo‘jayev Yoqubxo‘ja** – 1893-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Aksilinqilobiy faoliyati uchun 10 yil qamoqqa hukm qilingan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotga a’zo bo‘lganlikda, yapon josusi bilan mustahkam aloqa bog‘laganlikda, jazo lageridan qochib, aksilinqilobiy ishlarni tashkil qilganlikda ayblangan. 4299-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan.

## QATAG‘ON QURBONLARI

**Xatibzoda Kabir** – 1896-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda savodsizlikni tugatish maktabida o‘qituvchilik qilgan. “Ittihod va taraqqiy”, “Milliy ittihod” va “Milliy istiqlol” tashkilotlari a’zosi. Ziyolilar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, o‘qituvchilar namoyishida tashkilotchilik qilganlikda ayblangan. 5349-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, jazo muddati 1937-yil 7-iyuldan hisoblangan.

**Yo‘ldoshev Abdurahim** – 1905-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotning a’zosi. Mafkura frontida dushmanchilik ishlarini olib borganlikda, o‘quv qo‘llanmasida xalqlar dohiysining tarixiy-inqilobiy faoliyatini buzib ko‘rsatganlikda ayblangan. 5347-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 7-sentyabrdan hisoblangan.

**Usmonov Obidoxun** – 1887-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi. Millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, ocharchilik haqida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan. 4309-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil iyuldan hisoblangan.

**Jo‘raboyev Hoji Safo** – 1875-yili Buxoroning Vobkent qishlog‘ida tug‘ilgan. Buxoro madrasasini bitirgan. Kolesov bilan Buxoroda bo‘lgan voqealar ishtirokchisi. 1905-yil oxirida Tiflisdagi g‘alayonda ishtirok etgani uchun Chor Rossiyasi hukumati tomonidan surgun qilingan. 1909-yilgacha Turkiyada yashagan. 1917-yil noyabrida Samarqandda bolsheviklar partiyasiga kirgan, Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridagi sovet idoralarida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. “Milliy ittihod” tashkilotining rahbar a’zolaridan bo‘lib, bu tashkilotning filiallari o‘rtasida aloqa o‘rnatganlikda, aksilinqilobiy millatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblangan. 6920-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 12-sentyabrdan hisoblangan.

**G‘ulomov Botir** – 1906-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining ishi bo‘yicha 5 yil qamoqqa hukm etilgan. Jazo muddatini o‘tamay qochgan, hibsga olingan vaqtda ishchilar fakultetida o‘qituvchi bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Aholi orasida millatchilik va ig‘vogarlik tashviqoti o‘tkazganlikda, xalq dushmanlari bilan aloqa o‘rnatganlikda ayblangan. 4719-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan.

**Ilyayev Xalil** – 1914-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda maktabda direktor lavozimida ishlagan. “Internatsional demokratik partiya” nomidagi aksilinqilobiy tashkilotning tashkilotchisi. Sovet hokimiyatini ag‘darib, o‘rniga kapitalizmni tiklash haqida targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

**Niyozov Abdurahmon** – 1916-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. “Internatsional demokratik partiya” tashkilotining faollaridan. Aksilinqilobiy kayfiyatdagi kishilarning jipsligini tashkil qilganlikda, yashirin kengashlar o‘tkazganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

**Ismoilova Yelena** – 1915-yili Omsk shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda omonat kassada hisobchi bo‘lgan. “Internatsional demokratik partiya” aksilinqilobiy tashkilotning faollaridan. Sovet hokimiyatini ag‘darib tashlash va kapitalizmni tiklash maqsadini qo‘yganlikda ayblangan. Jazo muddati 1937-yil 21-avgustdan hisoblangan.

**Yoqubov Ergash** – 1914-yili Qozog‘istonning Chimkent shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda maktab o‘qituvchisi bo‘lgan. “Internatsional demokratik partiya” aksilinqilobiy tashkilotning a’zosi. Sovet hokimiyatini ag‘darib tashlash maqsadini qo‘yganlikda ayblangan. Jazo muddati 1937-yil 28-avgustdan hisoblangan.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**
*tarix fanlari doktori,*
*professor,*

**Nigoraxon AKBAROVA,**
*ilmiy xodim*

**(Davomi kelgusi sonda).**

HIKOYA



Eshqobil SHUKUR

# O‘G‘IL



Bu yog‘i voha bekliklarining bepoyon yerlarida, bu yog‘i tojig-u turkman tomonlarda dong‘i chiqqan polvon – Davla gazar kuz odoqlarida Tagto‘qay qishlog‘ida bo‘layotgan katta kurashga yetib kelib, maydon oraladi. El yelkasi yer iskamagan botirini gurillab olqishladi. Rangi o‘ngigan beqasam to‘nli yosh-yalang bo‘z yigitlar, yamoq urilgan qalin jelakli o‘rtacha polvonlar tog‘kelbatli Davlani ko‘rib, asta-asta davradan chetlay boshlashdi. Maydon haybatidan ot hurkadigan zo‘rlarga qoldi. Yirik polvonlar ham yiqitib-yiqilib bo‘lgandan so‘ng, bakovul katta toboqni[1] mehmonkeldi[2]ga qo‘shib Davla gazarning nomiga bag‘ishladi. Talabgor topilmagach, oqsoqollar qo‘yarda-qo‘ymay Sherobod bekligining dongdor pahlavoni, Qoraqoplon laqabli, tovonidan o‘t chaqnagan Abdusattor polvonni maydonga tortqilab, duo berib yubordilar. Bu kurashga yuragi betlamay tursa-da, Abdusattor elning duosiga qarshi borolmadi, noiloj Boysun bekligining zo‘riga qarshi maydonga chiqdi. El tusmollaganday kurash uzoqqa cho‘zilmadi.

Davla gazar Abdusattor polvonni yelkasidan oshirib urgandan so‘ng yo‘lbars yurish qilib davrani bir aylandi. Bakovul “mag‘lub polvonning origa talabgor bormi”, deb hayqirdi. Shunda o‘n uch yashar o‘spirin davraga o‘ynab otilib chiqib, maydon o‘rtasiga cho‘nqayib o‘tirdi. Hali suyagi qotmagan, ko‘zlari katta-katta, bug‘doyrang yuzi tip-tiniq, qoshlari qalin, qora to‘nli bo‘zgina bolani ko‘rgan odamlar hayron qarashdi. Ko‘zi kurashlarda pishgan, yoshi oltmishni qoralagan, suyakdor bakovul unga qirg‘iy qarash qilib:

– Ha, qulunim, sen nimaga chiqding? Jo‘jaxo‘rozlarning gali o‘tdi. Hozir katta polvonlar olishadi, – deb qo‘lini silkib, chetlash degan ishorani berdi.

– Men otamning origa chiqdim, Davla bilan olishaman, – dedi bola tap tortmay. Polvon otasining mag‘lubiyati bu o‘spirinning yuragini o‘ynatib tashlagan edi.

– Hay-hay-hay, – deb qichqirdi bakovul. – Polvonjon, shoshmang, shoshmang. Hali sizga vaqt bor. O‘zingizning teng-to‘shingiz bilan tirashing. Davla polvon sizdan kamida ikki muchal katta.

Bola o‘rnidan qo‘zg‘almay, or talab turaverdi, so‘ng bakovul moshkichiri mo‘ylovini silab, maydon chetiga qarab qichqirdi:

– Hov, Abdusattor polvon, kichik bo‘ringizdi qaytaring, men bunday notanti kurashga duo berolmayman. Davla polvon qayda-yu, bu qayda? Hali go‘dak-ku bu.

Ko‘rpaday choponiga o‘ranib o‘tirgan Abdusattor polvon o‘g‘liga:

– Shamsiddin, davradan chiq, esing bormi o‘zi! – deb siyosat qildi.

Bola o‘rnidan qo‘zg‘almadi. Yana balandroq ovozda “Men Davla bilan olishaman”, deb baqirdi.

Katta davrani gir o‘rab turgan tumonat odam guvillab ovoz berdi. Bu tomoshaga chetdan ayiqday bepisand qarab turgan Davla gazar lorsillab o‘rtaga chiqdi-da, qoshigacha tushib turgan sur telpagini manglayiga ko‘tarib, bakovulga to‘ng‘illadi:

– Otasining origa chiqibdimi, qaytarmang, bakovul bobo. Shuncha gerrayyaptimi, mayli, men bilan olishsin. Kuchiga ishonayotgandirki, maydonga otilib chiqyapti.

Odamlar norozi ohangda jo‘r bo‘lib, “eee”ladi. Ko‘pni ko‘rgan gapchinoz bakovul ham nima qilarini bilmay qolib, yordamchilari bilan maslahatga bosh qo‘shdi. Bir paslik qo‘l silkishlar-u barmoq nuqishlardan so‘ng bakovul maydon kindigiga qaytdi va hukmona ohangda:

– Ey xaloyiq, – deya o‘ng qo‘lining ko‘rsatkich barmog‘ini osmonga nuqib gumburladi: – Abdusattor polvonning uli Shamsiddin polvon otasining orini talab qilib, Davla polvonni maydonga chaqirdi. Udumlarimizga ko‘ra, or uchun chiqqanni ortga qaytarmaydilar. Shunga ikki polvonga duo beramiz. Bu ikki polvonning o‘rtasida bir toyi, bir chori qo‘yi bor. Haqqingni halollab olasan, polvonjonlar! Omin! Omin!

Hamma gurillab duo berdi. Lekin odamlar orasida past-baland gap qo‘zg‘alib qoldi. Birov: “Davla bu bolani bir qissa, suyaklarini qisirlatib sindirib yuboradi-ku”, desa, yana birov: “Qani ko‘rsin-chi, lekin g‘ayratiga qoyil, o‘t ekan, olov ekan”, der, boshqa birov: “Bakovulning kallasi joyidami, teng-tengi bilan chiqishi kerak-da”, deb ta’na qilardi.

Birozdan so‘ng Shamsiddin polvon kiyimlarini kiyib, yana davraga otilib chiqdi. Tiramohning so‘nik quyoshi ostida maydon aylanayotgan, tanida g‘ayrat chaqnagan bu o‘spiringa qalin oq jelak va uzun guldor belbog‘ juda yarashgandi. Undan keyin chiqqan Davla gazar salobat bilan gursillab davrani bir aylandi. Uning arslon yurishini ko‘rgan el “Mening tengim shumi?” degan iddaoni tuyganday bo‘ldi.

Kurash boshlandi. Polvonlar birinchi qo‘l olishlarida bir-birlarining ko‘zlariga qaraydilar. Shunday paytda Davla gazar yosh Shamsiddinning ko‘zlarida chaqmoqni ko‘rdi va birdan nimanidir anglaganday kulimsirab qo‘ydi. Shamsiddin bu kulimsirashni mazax deb tushundi, ichidagi achchig‘ining rangi yuziga urdi.

Polvonlar yoqa olishganlarida o‘spirin Shamsiddin yurtning eng katta polvoni, kimsan Davlaning po‘lat boldirlariga zarb bilan qoqma[3] berdi. Katta polvon tizzaladi. Odamlar yana jo‘r bo‘lishib “o‘o‘o‘” deb shamolday ovoz berdi.

Davla tezda o‘rnidan turib, o‘ng qo‘li bilan raqibining so‘l qo‘lidan ilib oldi-da, birdan to‘xtadi va tumonatga qarab hayqirdi:

– O‘o‘, el-u xalq! Otasining orini ko‘targan shu bolaga duo beringlar. Nasib etsa, bu bola yurtning katta polvoni bo‘ladi. Shamsiddin polvon otasi Abdusattor polvonning orini oldi. Men yiqildim.

Davla gazar taslim ishorasini berib, ikki qo‘lini boshidan baland ko‘tardi. El duoga qo‘l ochdi.

Davla gazarning o‘zi ataylab tizzalaganmi yo kichik bo‘ri rostdan shunday kuchga ega bo‘lganmi, bunisini bilmadik, lekin o‘sha kuni Shamsiddin otasining orini olgani chin.

*[1]Katta toboq – eng katta sovrin.*

*[2]Mehmonkeldi – to‘y egasining yaqin qarindoshlari tomonidan qo‘yiladigan sovrin.*

*[3]Qoqma – tepish, chil berish, kurashdagi usul.*

ZARDA

# MANIM OVOZIM QIMMAT!

**Kaminaning muhtaram “Jadid”ga arzi holim shulki, yo‘lini topsa ko‘cha obod, maktab-bog‘cha nurafshon, shifoxona orasta bo‘lar ekan, deb eshitdim. Zamonangdan aylanay, tunov kuni ro‘zai ramazonda peshinni machitda o‘qiy deb barvaqtroq borib qolibman, yoshgina imom xo‘b dono ekan, bu obodonchilig-u bu zebolig-u bu farovonliklardan guftigo‘ aylab, barchani ho‘ng-ho‘ng yig‘latdi. O‘lay agar, Ovsar otimni boshqa qo‘ymasam, diydam qotgan, ko‘nglim sangi malomat esa-da, bir palla qarasam, manim ham ko‘zlarimdan obi giryon ravon-ravon sarupomni shilta qilib yuboribdi. Bale, otangga bale, onangga bale, imom bo‘sa shundoq shirinsuxan bo‘sin!**

Emdi machitdan chiqib, ilohiy farog‘atlar ila ohista-ohista Yassaviy yodini tutib, “Buyuk ipak yo‘li” metro bekatidan shundoq yer ostiga sho‘ng‘iy degan xayolda zinaga oyoq qo‘yganimni bilaman, qulog‘im ostida:

– Yigirma besh ming, yigirma besh ming! – degan qichqiriq yangrab qolsa bo‘ladimi.

Asov xachir siltanib yerga otgan chavandozday cho‘chib o‘girilsam, to‘rtta o‘spirin karvon yo‘lini to‘skan qaroqchizodalar kabi man sori bostirib kelmoqda.

– Hoy nobakorlar! – Qo‘rqqanimdan tilim tanglayimga yopishgandek zo‘rg‘a ovozim chiqsa. – Nima u yigirma besh ming?

– O‘ppen bo‘jetga ovoz bering, yigirma besh mingni naq sanab olib ketavering! – Ko‘rinishidan cho‘ntagida hemiriyam yo‘q qoqsuyak tumshug‘im ostida bir dasta pul o‘ynatdi.

– Tanlov o‘tkazvossanlarmi? – debman hayronalar qolib.

– Biz falon viloyatning falon tumanidagi falonchi maktabga o‘ppen bo‘jet uchun ovoz yiqqani kelganmiz, – ko‘zlari olma-kesak terib turgan boshqasi man fahmlamaydigan narsamni tushuntirmoqchi bo‘ldi. – Bir juft ovoz bersangiz – ellik ming!

Manim otim Ovsar bo‘lsa, bularning o‘zlari merovlarmikan, degan ishtibohda:

– Mayli, berdim mana bir juft ovozimni, qani cho‘z ellik mingni, – deb machitdagi ibodatimni faromush aylab, qo‘limni uzatib yuborganimni o‘zim ham payqamay qolibman.

– Telefoningizni bering, telefoningizni, – dedi u tirnoqlari osti qorayib yotgan qo‘lini man tomon cho‘zib. – Ovoz berish SMS orqali bo‘ladi.

Telefonimni qo‘ynimdan chiqarib bermoqchi bo‘ldim-u, o‘tgan oy bir telefon qilay deb kampirimni pensasini qoqishtirib ketgan nobakor yodimga tushib, vaqtida esimni yig‘dim.

– Qoch nari! – dedim yo‘limda davom etib. – O‘ppen bo‘jeting boshingdan qolsin!

– Maktabimizni tuzatib olsak sizgayam savobi tegardi, – ortimdan qoqsuyakning qichqirayotgani eshitilib turdi. – Shundan bo‘lak ilojimiz yo‘q, mingta ovoz yig‘sak, ikki yuzu ellik milyon pulimiz ketadi, undayam yutsak uncha-muncha foydasi tegadi, yo‘qsa kuyib qolaveramiz!

Saning maktabing qayda-yu man qaydaman, umrimda ko‘rmagan bo‘lsam, u joyda maktab bormi-yo‘qmi, bilmasam, e puling ham, o‘zing ham...

Nervim buzildi. Nervim buzilsa, qo‘lim qichiydi, qo‘lim qichib ro‘zai ramazonda kampirga ozor berib qo‘ymay, deb o‘sha o‘zimizning 13-do‘xtirxonadagi neruvpatolo‘g degan odamga yo‘liqib qo‘yay deb u yoqqa qarab yo‘l oldim. Yopiray, o‘ngimmi-tushimmi? Mani kutib olish uchun bir guruh do‘xtirlar eshik oldida qator turishibdi. Ana obro‘, ana e’tibor! Haligi imomni peshingi tashbehlari rost chiqib qoldi chog‘i.

– Keling, keling!

Quyosh qaydan chiqdi? Bo‘lar ekan-ku?

– Keldim...

– Nima bo‘ldi?

– Ha, shu-u neruv sal...

– Shest sekundda joyiga solamiz.

– E, rahmat, sal o‘zimga keldim-a!

– O‘ppen bo‘jetga ovoz berdingizmi?

– Nima-a?

– O‘ppen bo‘jetga! Mana, do‘xtirxonamizni ahvolini ko‘ryapsiz, mayli, sizni navbatsiz qabul qilamiz, nervingizni shest sekundda joyiga solamiz, ammo sizam biz uchun bir ish qilingda – biz uchun o‘ppen bo‘jetga ovoz bering! Pulli klinikaning uyoq-buyog‘ini tuzatsak, sizga ham foydasi tegadi-da.

E, nervim buzildi, bu yerda binoyi jinniga aylanib qolmay deb, indamay o‘zimni bosib, ortga burilib keta boshladim. Ortimdan ularning barchasi jo‘rovozlikda qichqirib qolishdi:

– Mayli, bint ham, paxta ham, hammasi o‘zimizdan, arzon ukol ham sanchib qo‘yamiz, tekinga – ovoz bering o‘ppen bo‘jetga!

Yov quvgandek qochib, katta yo‘ldan o‘taman desam, aksiga olib yo‘lqozini qizili yonib turgan ekan, nafas rostlay desam, qarshimdan ikki davangir chiqib qoldi.

– Amaki, biz Bo‘kadan, – dedi ulardan biri yo‘g‘on ovozda.

– Man Lo‘li mahalladanman, – dedim kelib chiqishimni surishtirmoqda degan gumonda.

– Ko‘chamiz xarob, – dedi ikkinchisi mani aybdor topib.

– Mani holim harob.

– Unda, ovozingizni bizga bering, – dedi birinchisi suyunib.

– Qanaqa ovoz?

– O‘ppen bo‘jetga ovoz, – dedi ikkinchisi. – Yigirma ming beramiz.

– Hozir yigirma besh mingga bermadim-u...

– Mayli, ming qo‘shamiz, kechki bozor. Qo‘ldi tashlang, amaki.

– Yo‘q, manim ovozim qimmat.

– Tushunamiz, – deb bosh qimirlatdi ikkovlon birdaniga. – Ammo bizniyam tushuning, yutamiz deb odamlardan ikki yuz milyon yig‘ib olganmiz.

– Yutolmasalaring nima bo‘ladi? Yaxshisi, o‘sha pulga aspal bostirsanglar bo‘lmaydimi?

Ikkovining ham rangi qum o‘chdi. Bu yog‘ini o‘ylamagan shekilli. Yo man bilmagan boshqa sababiyam bormi...

Ularga rahmim kelgandek bo‘ldi-yu, kampirimning chuv tushganini eslab, qahrim qo‘zidi.

– Manim ovozim qimmat, – dedim yana. – Qimmat!

– Qancha?

Yo‘lning naryog‘idan ikki qo‘lida ikki butilka semichka yog‘ ko‘tarib kimdir bizga peshvoz yugurib kelmoqda edi.

– Amaki, shoshmang, bir emas, ikki butilka yog‘ olasiz...

Yo‘lqozini ko‘k chirog‘i yondi. Man ko‘chaning o‘ttasiga chopib o‘tsam-da, ortga o‘girilib qarashga yuragim bezgan edi. Uf-f!

“Jadid” og‘ayni, sani xat-savodingga shubham yo‘q. Achchiq ichakdek cho‘zilg‘on hangomamdan muddao shulki, bu savdoni kampir ikkovlashib ham anglab yetolmadik: bular kimni aldashmoqchi? O‘zlarinimi yo hukumatnimi?

Arzi holni adog‘iga yetkazib, bosh barmoqni ko‘k siyohga bulab bosguvchi muxlising

**OVSAR**




Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

**Bosh muharrir:**
Iqbol Mirzo

**Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:**
Humoyun Akbarov

**Navbatchi muharrir:**
Gulchehra Umarova

**Sahifalovchi:**
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

**Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.**

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 6158
Lotin yozuvidagi adadi – 11958
Buyurtma: G – 440.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**
**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:40
Sotuvda narxi erkin.